



**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ
(MINTAQAVIY) MARKAZI**

ETNOLOGIK TADQIQOT METODLARI

**MODULI BO'YICHA
O'QUV- USLUBIY
MAJMUA**

2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIIY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

“ETNOLOGIK TADQIQOT METODLARI”

**moduli bo‘yicha
O‘QUV–USLUBIY MAJMUA**

Toshkent – 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Sh.Fayzullayeva, F.T.Yernazarov.
O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.n., dots. A.Ashirov,
t.f.f.d., dosent v.b. N.Narziyev, t.f.f.d., katta o‘qituvchi
A.Bababekov.

Taqrizchi: t.f.d., dots., B.Ubaydullayeva – O‘zbekiston Milliy universiteti, t.f.n., dots. A.Qayumov – O‘zRFA Arxeologiya Milliy markazi

*O‘quv uslubiy majmua Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024-yil 20- yanvardagi № 4/2-sonli bayonnomasi)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	15
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	18
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	74
V. GLOSSARIY.....	87
VI. NAZORAT SAVOLLARI.....	93
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	95

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12- iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini yoritib berish, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, etnologik tadqiqot metodlarini qo‘llash, Markaziy Osiyo etnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o‘quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

1.1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari.

1.2. Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari.

- 1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.
- 1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.
- 1.6. Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari.
- 1.7. Etnologik tadqiqot metodlari.
- 1.8. Markaziy Osiyo etnologiyasi.

Malakaviy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Antropologiya va etnologiya” yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

“Antropologiya va etnologiya” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining davlat va jamiyat hayotini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyatini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini;
- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o‘quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni, o‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- ta’lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini;
- raqamli ta’lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarni;
- jahonda oliy ta’lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo‘nalishlarni;
- zamonaviy ta’limning global trendlarini;
- inson kapitalining iqtisodiy o‘rishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta’limning yoshdagi ahamiyatini;
- oliy ta’limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
- zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko‘pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
- universitetlarning zamonaviy modellarini;
- zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
- tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo‘nalishlarini;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
- kasbiy kompetensiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
- pedagogik texnikani shakllantirish yo‘llarini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, reflektiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta’sirini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda uchraydigan to‘siqlarni yechishda, to‘g‘ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;

- ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
- kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
- baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
- etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma'lumotlarni;
- zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil qilish: etnograf olimlarning tadqiqot va tavsiflari, xalq og'zaki ijodi va badiiy matnlar, etnososiologik va etnopsixologik tadqiqotlar, publisistik ma'lumotlar, rasmiy xujjatlar, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, arxiv, statistik qo'mitalar va h.k ma'lumotlarni;
- turlicha ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, turlicha metodlarni;
- bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmuini;
- Markaziy Osiyo hududi, aholisi haqida umumiy ma'lumotlar, kursning dolzarbligi, maqsad va vazifalari haqida, ularni amalga oshirish usullari izohi, fanga oid ilmiy monografiyalar, darsliklar va ilmiy to'plamlar tavsifini;
- Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezi va etnik tarixi, xo'jaligi va moddiy, hamda ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning nazariy asoslarini;
- Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalarini, klassifikatsiyalash tamoyillarini;
- fanga oid asosiy tushuncha va atamalarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy yo'nalish va maqsadlarini tahlil etish va baholash;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- xorijiy tajribalar asosida malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish;
- multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik materiallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
- masofiviy ta'lim platformalari uchun video kontent yaratish;
- Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash;
- OTMlarni reyting bo'yicha ranjirlash;
- jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
- universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
- tadbirkorlik universitetiga o'tish uchun zarur bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlash;
- Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o'tish borasidagi muammolarni aniqlash;
- zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o'zlashtirish;
- pedagoglarning kreativ potentsiali tushunchasi va mohiyatini ochib berish;

- pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo'llash;
- o'qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning ahamiyatini yoritib berish;
- tinglovchilar diqqatini o'ziga tortish usullaridan foydalanish;
- kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
- talabalarning o'quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
- talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o'quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ni nazorat qilish;
- baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
- etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma'lumotlarni to'plash, turli nomoddiy ashyolardan foydalanish;
- bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmuini to'plash va tahlil etish;
- Markaziy Osiyo etnoslari: lingvistik, antropologik, xo'jalik-madaniy klassifikatsiyalari mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantirish;
- fanga oid asosiy tushuncha va atamalardan foydalanish;
- Markaziy Osiyo etnologiyasi asoslarini yoritib berish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasining mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- an'anaviy va raqamli ta'limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini ochib berish;
- onlayn mashg'ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o'zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini ochib berish;
- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilari va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;

- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o‘quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharoitni vujudga keltirish;
- tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o‘rganish, tanishish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiya ning roli, ahamiyatini ochib berish;
- ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o‘qituvchilarning salohiyati va o‘quv-metodik ta’minot)ni tahlil etish va baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
- talabalarning o‘quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o‘quv topshiriqlari (reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
- etnologiyada tadqiq etilayotgan etnos vakillarini bevosita kuzatish, ularni turli vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutishlari, suhbat, munozaralardagi mantiqiy fikrlashlari, dunyodagi hodisa, voqealarni o‘z xulq-atvorlarini izohlash usullaridan foydalanish;
- Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasining maxalliy va xorijlik tadqiqotchilar tomonidan urganilishini tahlil etish va baholash;
- etnologik tadqiqot metodlarini o‘zlashtirish;
- tarixshunoslik taxlilini amalga oshirish *malakalariga* ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini mazmun-mohiyatini yoritib berish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta’minlash;
- raqamli ta’lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o‘quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta’lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o‘zlashtirish;
- raqamli ta’lim muhitida pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish;

- universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
- OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarni tijoratlashtirish yo‘llarini tahlil etish va amaliyotga tadbiq etish;
- «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo‘llash;
- professor-o‘qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyotga tadbiq etish;
- pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
- talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron monitoring tizimini yuritish;
- talabalarning ta’limiy (o‘quv predmetlari), tarbiyaviy (ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil qilish;
- turlicha ma’lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, turlicha metodlarni qo‘llash;
- Markaziy Osiyo etnologiyasining asosiy tushunchalarini, klassifikasiyalash tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

- modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan;
- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Etnologik tadqiqot metodlari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari”, “Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari”, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari”, “Markaziy Osiyo etnologiyasi” mutaxassislik o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning ta'lim jarayonida kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

“Etnologik tadqiqot metodlari” modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg'or tajriba va yangiliklarni o'rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Mavzu nomi	Jami	Auditoriya uquv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot
1.	Etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma'lumotlarni to'plash.	4	2	2	
2.	Etnologiyada tadqiq etilayotgan etnos vakillarini bevosita kuzatish.	10	2	2	6
3.	Turlicha ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash.	4	2	2	
4.	Bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmui.	10	2	2	6
	Jami 28 soat	28	8	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma'lumotlarni to'plash. (2 soat)

Etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma'lumotlarni to'plash. Zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil: etnograf olimlarning tadqiqot va tavsiflari, xalq og'zaki ijodi va badiiy matnlar, etnososilogik va etnopsixologik tadqiqotlar, publisistik ma'lumotlar, rasmiy xujjatlar, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, arxiv, statistik qo'mitalar va h.k ma'lumotlar jalb etish.

2-mavzu. Etnologiyada tadqiq etilayotgan etnos vakillarini bevosita kuzatish. (2 soat)

Etnologiyada tadqiq etilayotgan etnos vakillarini bevosita kuzatish, ularni turli vaziyatlarda o'zlarini qanday tutishlari, suhbat, munozaralardagi mantiqiy fikrlashlari, dunyodagi hodisa, voqealarni o'z xulq-atvorlarini izohlash usullari.

3-mavzu. Turlicha ma'lumotlarni to'plash. (2 soat)

Turlicha ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, turlicha metodlarni qo'llash.

4- mavzu. Bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmui. (2 soat)

Bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmui: dala tadqiqotlari, yozma manbalarni va og'zaki rivoyatlar, afsonalarni tadqiq etish, arxeologik va antropologik ma'lumotlar, statistik manbalar (aholi ro'yxatlari ma'lumotlarini), audio va video ma'lumotlar va h.k.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Etnologiya fan sifatida shakllanishining ilk bosqichlarida ma'lumotlarni to'plash. (2 soat)

Etnologiya fan sifatida, uning predmeti, uslublari va yondosh fanlar bilan aloqadorligi. Xalqlarning maishiy turmushi, madaniyati va ijtimoiy hayotini o'rganishda statsionar (uzoq muddat bir joyda yashash va kuzatish) va qisqa muddatli ekspeditsiya uslubi orqali o'rganishning ijobiy va kamchilik jihatlari. N.N.Mikluxo-Maklay, V.G.Vagoroe va L.Y.Shternberg, Margaret Midlarning tadqiqot ma'lumotlari hozirgi kungacha etnografik tadqiqotlarning namunali ko'rgazmasi sifatida.

2-amaliy topshiriq: Etnologiyada tadqiq etilayotgan etnos vakillarini bevosita kuzatish. (2 soat)

Kuzatish turlari: To‘g‘ridan-to‘g‘ri, ichkaridan va ishtirokli kuzatuv. Kuzatishga tayyorgarlik: reja va dasturlar, kuzatish vositalari orqali natijalarni qayd etib borish. Ishtirokchilarni kuzatishni tashkil etish: uslubiy va etika (ahloq) muammolari. Bixevioristik (xulq-atvor) yondashuv. Semiotik yondashuv.

3-amaliy mashg‘ulot: Turlicha ma’lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, turlicha metodlarni qo‘llash. (2 soat)

Dala ishlarining asosiy turlari: etnografning shaxsiy kuzatuvlari, axborotchilar biln suhbat, olingan ma’lumot va ashyolarni ta’minlash, etnografik muzey uchun yig‘malar to‘plash. Dala kundaligini yuritish va saqlash. Dala kundaligini tuzish va loyihalash (kuzatish natijalarini qayd etish). Kuzatishlar davrida va kun oxirida yozuvlarni qayd etish. Dala kundaliklarini yuritish va ma’lumotlarni qayta ishlash tartibi, kundalik daftarni saqlash qoidalari.

4-amaliy mashg‘ulot: Bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmui. (2 soat)

Etnografik dala ekspeditsiyasini o‘tkazish amaliyoti. Guruhli suhbat (fokus-guruh usuli. Miqdoriy dala tadqiqot usullari. Anketa so‘rovi. Dala tadqiqoti natijalarini tavsiflash va taqdim etish shakllari.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

“Etnologiyada tadqiq etilayotgan etnos vakillarini bevosita kuzatish” (6 soat) va “Bugungi kundagi etnologiyada etnologik tadqiqotlarni butun bir majmui” (6 soat) mavzular bo‘yicha ko‘chma mashg‘ulotlar zamonaviy jihozlar hamda innovatsion texnologiyalarni qo‘llab faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarida olib boriladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi: ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlarida geologiya fanlarni o‘qitish metodikasi sohasidagi yangi ma’lumotlar, zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan tanishtirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash.

O‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, grafik organayzerlardan, keyslardan foydalanish, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, blits-so‘rovlardan, sinkveyn va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

- Metodni amalga oshirish tartibi:
- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Davra suhbatlari” metodi


Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatlari” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi” ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr- mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir

mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



"Blits-o'yin" metodi

Metodning maqsadi: o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa "0", mos kelsa "1" ball quyish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

I-MAVZU: ETNOLOGIYA FAN SIFATIDA SHAKLLANISHINING ILK BOSQICHLARIDA MA'LUMOTLARNI TO'PLASH

1.1. Zamonaviy etnologiyada ilmiy tahlil: etnograf olimlarning tadqiqot va tavsiflari

Etnologiya fani predmeti. Har bir fan o'zining tadqiqot predmeti xosligi, uning tadqiqot etish uslublari bilan boshqa fandan farqlanib turadi.

Etnologiya fan tarzda paydo bo'libdiki, to hozirgi kunga qadar xalq va xalqlarning madaniy o'ziga xosligi uning asosiy tadqiqot ob'ekti bo'lgan. Yanada kengroq tushuntirilsa mazkur fan turli xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi, ular ishtirokidagi an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, moddiy va ma'naviy madaniyat muammolari hamda etnoslararo jarayonlar ushbu doirasida tadqiq qilinadi. Demak fikrimizcha, etnologiya asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida etnos bilan bog'liq quyidagi jihatlarni o'rganadi:

- Etnogenez va etnik tarix muammolari;
- Xalqlarning moddiy madaniyati;
- Xalqlarning e'tiqodiy qarashlari, milliy marosimlari va urf-odatlar;
- Turli xalqlarning qarindoshlik tizimi: qarindosh-urug'chilik aloqalari;
- Xalqlarning ijtimoiy va siyosiy tuzulmalari (oilaviy munosabatlar va hokimiyat munosabati);
- Turli xalqlarga xos tarbiya an'analari tizimi;
- Bir xalq madaniyatining turli komponentlari orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik muammolari;
- U yoki bu xalq madaniy xususiyatlari dinamikasi (madaniy o'zgarishlar);
- Turli xalqlarning psixologik o'ziga xosligi;
- Turli xalqlarning xayot tarziga moslashishi: ularning tabiiy muhitga moslashishi
- Etnos qadriyatlarini taqqoslash;
- Turli xalqlarning dunyo xaritasida taqqoslash;
- Madaniyatlararo muloqotlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- Etnoslarning paydo bo'lishi va bo'linib ketishi sabablari;
- Xalqlarning joylashuvi;
- Etnoslar bilan bog'liq sodir bo'ladigan demografik jarayonlar;
- U yoki bu etnos vakillarining iqtisodiy munosabatlari;
- Etnolingvistika;
- Etnomadaniyat muammolari;
- An'ananing paydo bo'lishi va taraqqiyoti va innovatsiyasi;

- Etniklik va etnik guruhlar muammosi.

Ushbu ro'yxatni yanada davom ettirish mumkin. Biroq mazkur ro'yxatning o'zi ham etnologiyaning tadqiqot ob'ekti ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi. Qolaversa, ushbu ma'lumotlar etnologiyaning asosiy manbai yozma manbalar hamda moddiy yodgorliklar bo'lgan an'anaviy tarix fanidan birmuncha kengroq ekanligidan dalolat berib turibdi. Shuningdek etnologiyada insoniyat tarixining dastlabki yozma madaniyat shakllanganunicha bo'lgan davrda yashagan va o'zlarining alohida yozuvlariga ega bo'lgan xalqlar-etnoslar asosiy tadqiqot ob'ekti tarzida o'rganiladi.

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad - tinglovchilarga etnologiyaning asosiy tadqiqot mavzusi va muammolari hamda zamonaviy tadqiqot usullari va uslublari borasida bilimlarni berish hamda ularning kelgusidagi mustaqil ilmiy faoliyatlarida zarur bo'ladigan darajadagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifalari - tadqiqotchi sifatida dala-etnografik materiallar yig'ish va to'plangan dala materiallarini mustaqil tarzda qayta ishlash, tahlil qilishga o'rgatishdir.

So'nggi yillar davomida mamlakatimizda sodir bo'lgan voqealar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot turli xil millatlar, xalqlar va elatlar madaniyatida ro'y bergan jarayonlar, ulardagi milliy xususiyatlarga ham ma'lum darajada ta'sir qildi, o'zgarishlar sabab bo'ldi.

Etnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri xuddi shu muammolarning etnik xususiyatlarini, ya'ni etnik jarayonlarni o'rganishdir. "Etnik" atamasining fanga kiritilishiga sabab, shu paytgacha ishlatiladigan "milliy" so'zining, ko'pincha "xalq" va hatto ba'zida "elat" tushunchasini berishdir. Amalda tez-tez ishlatiladigan "millatlararo" (межнациональные) so'zi aslida "xalqlararo" (межнародные) mazmunini beradi. "O'zbekiston xalqlari" deganda siz "o'zbek xalqi" ning o'zinigina emas, bu o'lkada yashovchi boshqa xalqlarni ham nazarda tutasiz. O'z navbatida "xalq" so'zi xam turli mazmun kasb etadi. Shuning uchun "millat", "xalq", "elat" so'zlari mazmunini berish mumkin bo'lgan "etnos" atamasi etnografiya faniga kiritildi. Natijada yuqorida ko'rsatilgan har bir guruhning madaniy-maishiy va til xususiyatlarining birligini ifodalashda etnik, o'zlarini esa etnoslar deb ataymiz.

Etnik jarayonlar milliy jarayonlarning tarkibiy qismi sifatida eng avvalo etnik birlashmalarning xususiyatlarida, o'zligi ifodasi – tilda namoyon bo'ladi. Etnografiya fanida ushbu muammolarni tadqiq qilish asrimizning 70 – yillaridan keng ko'lamda boshlanadi.

Demak, hozirgi kunda etnografik ekspeditsiyalar davomida etnik jarayonlar asosiy predmetlardan hisoblanadi. Etnos odamlarning ma'lum tarixiy davrda tashkil topgan o'ziga xos birlashmasi, sotsial guruhi, ularning birgalikda hayot kechirish shaklidir. Etnik birlashma, ma'lum guhlarning aloqalari asosan qo'shnichilikda, ya'ni bir joyda yashovchi, bir tilda gaplashuvchi xalqlarda shakllanadi. Demak, joy va til birligi etnosning shakllanishidagi asosiy shartidir.

Etnografik ekspeditsiyalar davomida etnik jarayonlarni tadqiq qilish borasida, ularning o'ziga xosligini ta'kidlovchi ikkita uslubni ko'rsatish mumkin. Ularning birinchisi etnotransformatsion jarayonlar, ya'ni ma'lum tarixiy davr mobaynida bir etnik holatdan boshqasiga o'tish, ya'ni ma'lum kishilar guruhining etnik o'zligini o'zgartirishdir.

Ikkinchisi, etnos hayotning turli xil o'zgarishlarga uchrashiga qaramasdan o'zligini

saqlab qolishi etnoevolyusion jarayonlar deb ataladi.

Zamonaviy etnik jarayonlarni o'rganishning ikkita turi mavjud:

Birinchisi, bo'linish, ya'ni ma'lum xalqning bir nechta mustaqil etnosga aylanish jarayoni bo'lsa, ikkinchisi, qo'shilish yoki tili, madaniyati yaqin bo'lgan bir necha millatlar, xalqlar yoki elatlarning, qardosh etnoslarning birlashuvi tushuniladi.

Bo'linish etnik jarayonlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida keng tarqalgan bo'lib, uning asosiy sababi qabilaning son jihatdan kengayishi va ko'chishlar natijasida ro'y bergan. Hozirgi paytda qo'shilish jarayonlari faol davom etmoqda. Elatlar, xalqlarning qo'shilishi tabiiy assimilyatsiya jarayoni, albatta, ilg'or (progressiya) an'anadir. Zamonaviy qo'shilish etnik jarayonlari o'z navbatida millat ichidagi yoki millatlararo bo'lishi mumkin.

Etnografik tadqiqotlar borasida qabilalar birlashuvini elatlar, xalqlar qo'shiluvidan farq qila bilishingiz zarur.

Xalqaro etnik jarayonlar deganda etnik assimilyatsiya (aralashuv) va etnoslararo integratsiya (yaqinlashuv) nazarda tutiladi. Etnik aralashuv (assimilyatsiya) deb, ma'lum bir xalqning ko'psonli bo'lmagan guruhini boshqa yirik xalq yoki millat bilan qo'shilish jarayoniga aytiladi. Tarixan assimilyatsiyaning ikki turi mavjud: majburiy va tabiiy.

O'zaro ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning keng ko'lamda bo'lishi etnik jarayonlarni yanada kuchaytiradi. Etnografik ekspeditsiyalar paytida etnik jarayonlarga bevosita ta'sir etuvchi aralash nikohlar, maishiy turmushda, ishda va o'qishdagi munosabatlarni o'rganish zarur. Ikkinchidan, etnografik ekspeditsiyaga bevosita ta'sir etuvchi zamonaviy aloqa vosita (televideniya, radio, matbuot va x.k) larning ahamiyatini ham hisobga olish shart.

Dala etnografik tadqiqotlari paytida o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar favqulotda xilma-xildir, ularni muayyan guruhlariga birlashtirish asosida etnografik ma'lumotlar to'planadi va o'rganiladi.

1.1.2. Etnologiyaning oldtarixi. Har bir ilmiy yo'nalish tarixiga nazar solsak, uning vujudga kelishi insonlarning amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq ekanligini anglaymiz. Etnologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi ham ushbu qonuniyat doirasida bo'lib o'tgan. Turli mamlakatlar etnologlarining insoniyatni ibtidoiy jamoadan xozirga qadar tarixiy tadqiq qilishlari shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar hamisha o'zlarining atrofidagi xalqlarni; hayoti, an'analari, udumlari, madaniyatlari bilan qiziqib, ular haqida ma'lumotlar to'plashgan. Bu xildagi ma'lumotlarning mavjudligi insonlarni atrof – muhitda o'zlarini erkin his etishlari va tutishlariga ko'maklashgan. Ushbu ma'lumotlarni biz qadimgi xalqlar: afsonalari, ertaklarida ko'plab uchratamiz. Messopotamiya, Misr, Eronda yozma ma'lumotlar chizmalar ham ko'plab saqlanib qolgan.

Antik davrga kelib uzoq – yaqin xalqlar va yerlar xaqidagi ma'lumotlar talaygina to'planib, ular aniq va batafsilligi bilan ajralib turgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda to'plangan bilim va ma'lumotlarni sistemaga (tartibga) solishga xarakat qilingan. Ular dastlabki etnografik tavsiflashga asos bo'lib xizmat qiladi. Tavsiflarni xarakterli jihati *Etnotsentrik* – ya'ni xalqlarni madaniy taraqqiyoti jixatidan bo'lish madaniyatli (sivilizatsiya) va qaloq yovvoyi (varvar) tarzda ifodalash bo'lgan.

Ilk o'rta asrlar Yevropasida demografik, ekologik va ijtimoiy muammolar natijasida etnografik bilimlarga qiziqish pasayadi. Natijada bunday ma'lumotlarni to'plash va saqlash markazlari Vizantiya, Xitoy va Arab xalifaligiga ko'chadi.

Yevropada boshqa xalqlar va mamlakatlarga qiziqishning qayta o'yg'onishi katolik cherkovi hamda mustamlakachilik siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Salib yurishlari, missionerlar va savdogarlarning sayoxatlari, Buyuk geografik kashfiyotlar g'arbiy yevropaliklarga Afrika, Amerika, Janubiy – Sharqiy Osiyo, keyinchalik Avstraliya va Okeaniya xalqlari haqida keng ko'lamli ma'lumotlar to'plash imkonini berdi.

Ma'rifatparvarlik asridan (XVIII) esa etnologiyaning xalqlar haqidagi fan sifatidagi oldtarixi boshlanadi. Bu davrda geografik determinizm g'oyasi hukmron bo'lib, unda inson, xalqlar va madaniyatlarga atrof – muhit tabiat mahsuli sifatida qaralgan. G'oyaning asosida insoning “yovvoyilik”dan ijtimoiy qonunlarga rioya etuvchi zamonaviy sivilizatsiya vakiliga aylanishigacha taraqqiyoti bosqichi – evolyusiya yo'li yotardi. To'plangan keng ko'lamli etnografik ma'lumotlar xalqlar va ularning madaniyatlarini bosqichma – bosqich rivojlanganligi g'oyasini yaratish imkonini berdi.

Xalqlar haqidagi mustaqil fan XIX asrning o'rtalarida, turli xalqlar madaniyatlari orasidagi farqlarni, etnik psixologiya xususiyatlarining shakllanishi omillarini, ijtimoiy tizimlar, madaniyatlarning rivojlanishi va inqirozi sabablarini, u yoki bu xalqning tarixiy rolini aniqlash uchun yaratildi. Muammolar xilma – xilligi fandagi g'oyalar va nazariyalarning ko'payib borishini, hamda asta sekin xalqlar haqidagi yagona fanga – etnologiyaga aylanishini ta'minlaydi. Fanning nomi yunoncha “Etnos” – xalq, logos – so'z, fan ma'nosini beradi. Atama, nom fransuz olimi Jan Jak Amper tomonidan 1830 yili antropologik (ijtimoiy)fanlar turkumiga kiritildi. 1839 yili Parijda etnologlar jamiyati tuziladi. Bu voqea etnologiyaning predmeti, maqsad va vazifalari haqida turli yo'nalishi hamda maktablarning shakllanishi, bahs va munozaralarni keltirib chiqaradi. Ushbu munozaralar bugungi kunda ham davom etmoqda. Yillar davomidagi bahslar “Etnologiya” tushinchasining o'ziga xos rang – barang, izoh va tomoyillarini yaratda.

Yevropa mamlakatlarining mustamlakachilik siyosati XIX asrning o'rtalaridan fanning taraqqiyotini tezlashtiradi. Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar mustamlaka xududlarni boshqarish uchun, ularning aholisi haqida aniq ma'lumotlarga muhtoj edilar. Asosiy ma'lumotlarni etnologiya bera olishi mumkinligidan, yangi fan rasmiy davlat tomonidan qo'llanilgan. Shu bilan bir qatorda mamlakatlar siyosiy – iqtisodiy manfaatlari etnologiyani Fransiya, Angliya, avstraliya, Germaniya, AQShda o'ziga xos rivojlanishiga olib keldi.

Dastlab etnologiya “qoloq” xalqlarni o'z davlatiga bo'lmagan etnoslarni o'rganuvchi fan sifatida shakllanadi. Bu XX asrning dastlabki o'n yilliklariga qadar davom etadi. Xuddi shu davrdan etnoslar ma'lum odamlar jamoasi bo'lib, ularning ijtimoiy – iqtisodiy darajasiga bog'liq emasligi g'oyalari paydo bo'la boshlaydi. Ushbu metodologik yondashuv fanda hozirga qadar ustuvorlik qilmoqda.

Germaniyada etnologiyaning taraqqiyoti. 1789 yili Volkerkunde ilmiy yo'nalishi shakllanib, yevropadan boshqa xududlarda yashovchi aholini o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. “Etnologiya” atamasi XIX asrning 30 yillaridan nemis sayohatchilari va olimlari tomonidan tavsiflangan xalqlarga nisbatan qo'llanish boshlanadi XIX asr o'rtalaridan bu 2 atama insoniyat madaniyatlarini mustaqil va qiyosiy o'rganuvchi umumiy fanga aylanadi. Hozirgi kunda Volkerkunde yo'nalishi (xalqshunoslik) nemis tilli xalqlar av ularning madaniyatlarini o'rganmoqda.

Buyuk Britaniyada etnologiyaning taraqqiyoti. Ingliz tilli mamlakatlarda xalqlar

haqidagi fan qisman boshqa yo‘ldan, antropologiyaning muayyan bo‘lagi sifatida yuksaladi. Antropologiya inson tabiati haqidagi biologik fan sifatida 1596 yildan O.Gasmanning shu nomli asari chop etilishidan boshlanadi XVIII asrdan antropologiya mustamlakachilik siyosati doirasi yuksak rivojlanadi. Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida XIX asrdan antropologiya jamiyatlari tuzila boshlanadi. Ular ibtidoiy odamlar asoratlarini (kalla suyagi va h.k.lar) o‘rganish bilan shug‘ullangan. Antropologiya tarkibidan yangi ijtimoiy antropologiya nomini olgan ilmiy yo‘nalish ajrab chiqadi. Uni ilmiy doiraga ingliz etnologiyasi asoschilaridan Jeyms Frezer 1906 yili etnologik tadqiqotlar yo‘nalishi sifatida kiritadi. Bu nomli olim o‘z tadqiqotlarini madaniy antropologiya bilan shug‘ullangan Ed Taylor ishlaridan farqlanish uchun qo‘llaydi. “Ijtimoiy antropologiya” atamasi juda tez tarqalib ingliz variantida “Etnologiya”ning ma’nosini beradi. Hozirgi kunda ingliz “Ijtimoiy antropologlari” o‘zlarining tadqiqotlarini turli etnik guruhlarni, turli madaniy an’analar egalari tarzida o‘rganmoqda.

AQShda etnologiyaning taraqqiyoti. AQShda etnologiya nisbatan kechroq vujudga keladi. Mamlakatdagi etnik o‘ziga xoslik va irqiy muammolar natijasida amerika antropologiyasi dastlab jismoniy antropologiya, irqiy va madaniy tafovutlarni o‘rgana boshlaydi. Uning asoschisi A.G.Morgan irokez qabilalari hayotini uzoq yillar tadqiq etib evolyusion yo‘nalish, nazariya asoschilaridan biri bo‘ldi. Olim o‘z tadqiqotlarida: primitiv madaniyatlarida qardoshlik sistemasi, oila – nikoh munosabatlari, klassifikatsiya tiplari, yer yuzida inson hayoti tarixini davrlashtirish muammolarini o‘rgandi. Morganning tadqiqotlari amerika etnologiyasini keyingi bir necha o‘n yilliklarga mavzular bilan ta’minladi. Ammo XX asrning 50 yillarida Frans Boas amerika etnologiyasi mavzulari doirasini toraytirib, unda faqat turli xalqlar madaniyatlari xususiyatlari o‘rganila boshlanadi. Ushbu yo‘nalish Boas tomonidan madaniy antropologiya deb ataladi keyinchalik u har qanday etnomadaniy tadqiqotlarni o‘rganishga nisbatan qo‘llanilib “etnologiya” ning amerikacha sinonimiga aylandi.

Fransiyada etnologiyaning taraqqiyoti. Fransiyada ham etnologiyaning taraqqiyoti o‘ziga xos yo‘ldan bordi. Faol mustamlakachilik siyosati natijasida: Fransiya siyosiy davralari bosib olingan xududlar xalqlari madaniyati, turmush tarzi xususiyatlari haqida mufassal ma’lumotlarga doimo extiyoj sezgan. Shuning uchun xalqlar haqidagi fanlar unda dastlab etnografiya (xalqni tavsiflash) nomini olgan. Bu nom XIX asr oxirigacha saqlanib, etnografik ma’lumotlarda tarixiy va nazariy xulosalar yetishmasligidan u XX asr boshlaridan “etnologiya” ga aylandi. Ushbu nom hozirda mavjud.

Rossiyada etnologiyasining taraqqiyoti. Rus etnologiyasining boshlanishi 1846 yilda rossiya geografik jamiyati tuzilishi bilan uzviy bog‘liq. Etnografiya bo‘limi raisi K. M. Ber o‘sha yili dasturiy ma’ruzasidan “Etnografik tadqiqotlarning, xususan Rossiyada o‘ziga xos tomonlari” ni belgilab beradi. Unda davlat manfaatlari o‘z xalqidan tashqari Sibir, Uzoq Sharq, O‘rta Osiyo, Kavkaz xalqarini ham o‘rganishni taqazo etayotgani izohlangan. Berning o‘rniga kelgan M. I. Nadejdin “Rus xalqini etnografik o‘rganish dasturida: 1) moddiy turmush 2)maishiy turmush 3) ahloqiy turmush 4) tilni tavsiflash vazifalarini qo‘yadi”.

Rossiya xalqshunosligida N.N. Mikluxo Maklay tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. U insonlarni yagona ildizdan ekanligini barcha irq va xalqlarni jismoniy va psixologik

tengligi haqidagi g'oyani tasdiqlashga xarakat qildi. Maklay Yangi Gviniya papuaslari va Okeaniya xalqlari misolida xalqlar madaniyatlari orasidagi farqlar tabiat va ijtimoiy hayotdagi xilma-xillikdan ekanligini tasdiqlashga intiladi.

XIX-XX asrlar chegarasida rus etnologiyasi tarqqiyotiga taniqli faylasuf G.G. Shpetning qo'shgan hissasi ham unumli bo'ldi. U "Etnik psixologiyaga kirish" asarida xalqning milliy psixologiyasini uning madaniyati, tarixi, aniq ijtimoiy muhit orqali o'rganish lozimligini ta'kidlagan. Shpetning fikricha "xalqning ruhi" uning mafkurasi va g'oyasini ifodalaydi. "Ruh" xalqning xulqidagi xarakterli xususiyatlari toplamidir.

Sobiq sovetlar davrida etnologiyaning asosiy vazifalaridan biri millatlararo munosabatlarni tadqiq qilish bo'ldi. Eng yirik olimlar: V. G. Bagoraz, P. F. Preobrajenskiy, S. P. Tolstov, N. N. Chebaksarov, S. A. Tokarev, Yu. V. Bromleylar fanni yuksalishiga o'z hissalarini qo'shadilar. Nihoyat 70-80 yillarda L.N. Gumelovning "Etnogenez" nazariyasini yaratilishi ham muhim bosqich bo'ldi.

Etnologiya hozirgi kunda. Albatta zamonaviy etnologiya fani, avvalgisidan ancha boyib, unda faqat yozuvsiz xalqlar emas, taraqqiy etgan industrial jamiyatlar ham ta'dqiq etilmoqda. Etnologiyaning boshqa fanlar bilan chegarasida yangi aralash sohalar: "Etnosotsiologiya", "Etnopsixologiya", "Etnolingvistika", "Etnodemografiya" va h. k. o.lar vujudga keldi. Etnologiyada yangi ijtimoiy fan, ya'ni o'zida inson va uning madaniyati haqidagi turli bilimlarni sintezlovchi fan qirralari yaqol ko'rinmoqda.

Etnologiya avvalgidek jamiyatdagi real ijtimoiy jarayonlar bilan aloqasini saqlash ham, uning o'ta muhim fan ekanligini tasdiqlaydi. Biz XX asr asosiy tarixiy voqealarni yuzaki tahlil qilsak ham unda **etnik omilning madaniy – tarixiy jarayonidagi** ahamiyati oshib borishini kuzatamiz. Siyosatda milliy xarakatlarning asosi etnik jarayonlar sanalishi ham bejizdan emas.

XX asr xaqli ravishda **milliy g'oyalar, milliy xarakatlar, millatchilik asri hisoblanadi.** Xalqlarning madaniy –tarixiy taraqqiyotidagi doimiy yuksalishi etnoslararo aloqalarini va milliy – ozodlik xarakatlarini faollashtirmoqda. Bunday jarayonlar natijasi sifatida Norvegiya, Irlandiya, Polsha, Finlandiya, Boltiq bo'yi mamlakatlari, Markaziy Yevropa va Bolqondagi I-jahon urushidan so'ng vujudga kelgan milliy davlatlarni ko'rsatish mumkin.

II-jahon urushidan so'ng mustamlakachilik tuzumining yemirilishi, 90-yillarda sotsialistik tizimning inqirozi yangi miliy mustaqil davlatlarni vujudga keltirdi. So'ngi yillardagi qurolli mojarolarning aksariyatida **Etnik omillar** asos ekanligi hammamizga ma'lum. Bularni o'rganish, etnologlardan **etnik jarayonlarning sabablarini, ularning istiqbolidagi yo'nalishlarini aniqlashni talab etadi.** XXI asr boshlarida **ikki buyuk davlat qarama –qarshiligi o'rnini ko'plab: regional, milliy va etnik mojarolar egalladi.** Ularning xar biri global ma'nodagi yirik urushga aylanib ketmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. O'tmishda etnografik ma'lumotlar to'plash mustamlaka siyosati uchun xizmat qilgan bo'lsa, endilikda **etnologdan** faqat an'anaviy emas zamonaviy (modernlashgan) jamiyatlarni ham chuqur o'rganish orqali **etnik muammolarini yechishga xarakat qilish va shu orqali insoniyatni saqlab qolishda o'z asosini qo'shish talab etilmoqda.**

Etnologiyaning zamonaviy yo'nalishlari. So'ngi yillarda ko'plab migrantlar va qochoqlar Yevropa va Shimoliy Amerika etnik xaritasiga katta o'zgarishlar kiritdi.

Mahalliy etnoslar ichida ko'p sonli migrantlar diasporlari vujudga keldi. G'arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlar ham ko'plab etnik muammolarni yaratmoqda. Ulardan eng dolzarblari turli xalqlarning ahloq-odob qoidalarini umumiylashuvi, turli madaniyat tillarining o'zaro ta'siri va birgalikda taraqqiyoti, madaniy aloqalar doirasida psixologik moslashuv (adaptatsiya), etnik o'zlikning no'ananaviy muhita rivojlanishi, o'zga xo'jalik madaniyatlarida iqtisodiy o'zlikning namoyon bo'lishi xususiyatlari va boshqalardir.

Yangi tarixiy sharoit va ijtimoiy muammolar etnologiya tadqiqot doirasini yanada kengaytiradi. An'anaviy mavzularga yangilari qo'shilib, olimlarga etnologiyaning ichida nisbatan mustaqil sohalarni yaratish imkonini bermoqda. Xususan g'arb etnologiyasida xo'jalik (iqtisodiy) etnologiya aniq shakllanib muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Shuningdek ijtimoiy etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya sohalari shakllandi.

Hozirgi kunda etnologiya fani murakkab va keng tarmoqli bilimlar majmuasini tashkil qiladi.

Ular qatoriga:

- **etnik antropologiya**
- **etnik sotsiologiya**
- **iqtisodiy etnologiya**
- **etnodemografiya**
- **etnik geografiya**
- **etnopedagogika** larni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda: etnologiya turli etnik guruhlarining shakllanishi va tarafqqiyoti, ularning o'zligi, o'z madaniyatini tashkil etish xususiyatlari, ularning jamoaviy xulqi qonuniyatlarini, shaxslar va ijtimoiy muhitning o'zaro bog'liqligi muammolarini o'rganuvchi fandir.

1.2. Etnososiologik va etnopsixologik tadqiqotlar

Insoniyat xilma-xil ijtimoiy etnik birliklardan tashkil topgan. Bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakatlarda 2 mingdan ortiq millat, elat va qabilalar yashamoqda. Ularning so'zlashadigan tillari esa 5 mingdan ortiqni tashkil etadi. Ammo mana shu tillardan 2 mingtasidan ko'prog'ida yozuvlar yo'q.

Etnosotsiologiya jamiyat hayotining qiyin sohasini o'rganadi – bu milliy munosabatlardir. Bu munosabatlar har xil etnik birliklarning hayotiy faoliyatlarining deyarli barcha tomonlariga tegishlidir.

XX asr nafaqat Yevropaning birlashishi bilan, balki ko'pmillatli davlatlarning parchalanishi, agressiv millatchilik va etnoslararo urushlar bilan ham tanildi. Bu esa yagona insoniyat to'g'risidagi illyuziyani inkor etdi. Hatto industrialgacha bo'lgan jamiyatda ham etnik omil nafaqat o'zining ahamiyatini yo'qotmadi, balki o'z faoliyat doirasini kengaytirdi ham. Bunga amerikalik sotsiolog Neyl Smelzer ham o'z e'tiborini qaratdi.

“Etnosotsiologiya” termini ilk bor XX asrning 30-yillarida nemis olimi Rixard Turnvaldning “*Insoniyat jamiyati uning sotsiologik asoslarida*” asarida paydo bo'lgan.

Birinchii etnosotsiologik tadqiqot deb hamkorlikda yozilgan Uilyam Tomas, Feliks Znaneskiylarning “*Polshalik dehqon Yevropa va Amerikada*” asari bo'lib, u polshalik

emigrantlarning (qochoqlar) AQShda adaptatsiyasiga (moslashishlariga) bag'ishlangan. Ilk bor etnik guruh bir butun emas, balki alohida-alohida – Polshadagi polyaklar va Amerikadagi polyaklar sifatida ko'riladi. Shaxsiy hujjatlarni tahlil qilish usuli (xatlar, biografiyalar (tarjimai hol), kundaliklar, xotiralar va b.), F. Znaneskiyning fikricha, respondentlarning sub'ektiv fikrini inobatga olishda xulosalarning ob'ektivligini ta'minladi. Undan tashqari, tadqiqotning xolisligini shu narsa belgiladiki, sotsiologlar shaxsiy hujjatlardan tashqari rasmiy hujjatlarga ham murojaat qiladilar (emigrantlarning arxiv gazetalariga va cherkov qavmlari (biror butxonaga, cherkovga qatnovchi dindorlar), sud ishlari).

Bizning mamlakatda etnik sotsiologiya XX asrning 60-yillarida kirib kelgan bo'lib, turmush va madaniyatning yaqinlashuvi, baynalmilal tarbiya (internatsional), aralash nikoh va millatlararo aloqalar bilan bog'liq tadqiqotlarda aks etdi. Tadqiqot o'tkazishning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor edi.

Ob'ektiv tomoni shundan iborat ediki, O'zbekiston butun Sovet davlati kabi polietnik davlatlar qatoriga kiradi. Unda o'zbek va qoraqalpoq xalqidan tashqari yana 130dan oshiq millat va elatlar yashaydi. Ular o'zining madaniyati va an'alariga egalar. Bunday sharoitda etnoslararo munosabatlarni tadqiq qilish katta ahamiyat kasb etib, bu sohada real holatni aks etardi.

Sub'ektiv sharoit ham etnosotsiologiyaning rivojlanishiga sabab bo'lib, saviyali olimlarning etnoslararo munosabatlarni o'rganishni aktuallashtirishda va sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, etnologiya tutushgan nuqtasida etnosotsiologiyaning shakllanishida katta rol o'ynaganlar. Ularning ichida RFA etnologiya va antropologiya instituti direktori Yu.V. Bromley alohida e'tiborga loyiqdir. U etniklik fenomenining o'zaro ijtimoiy bog'langani tadqiqotchiga nazariy yo'llar topdi.

Etnosotsiologiyaning rivojlaniga boshqa tarixchi, faylasuf, psixolog olimlarning ishlari yordam berdi. Ularning ichida rossiyalik olimlardan E.A. Bagramov, M.S. Djunusov, IP. sameryan, M.I. Kulichenko, I.S. Kon, I.A. Shkaratan va boshqalarni alohida qayd qilish kerak.

Etniklik, milliy madaniyat, milliy o'zini o'zi anglash, milliy rivojlanish va millatlararo munosabatlarning har xil aspektlariga O'zbekistonning S. Atamuratov, N.G. Gaipov, M.I. Nurmatov, M.M. Xayrullaev, K.X. Xanazarov, I.R. Xo'jamurodov, S.Sh. Shermuhammedov, G.Sh. Shirmetov va boshqalar jamiyatshunoslarning ishlari bag'ishlangan edi.

Sobiq Sovet tuzumi davrida etnosotsiologiya to'laqonli o'z rivojini topmadi. Turli millatlar, elatlar, xalqlar va etnik guruhlarining ijtimoiy taraqqiyotiga bir tomonlama yondashildi. Kelajakda ular o'zaro qo'shilib yaxlit bir Sovet xalqi etnik birligi vujudga keladi, degan xayoliy, soxta va noto'g'ri mafkuraviy siyosat yurgizilishi oqibatida har bir etnik birlikning o'ziga xos boy, go'zal va takrorlanmas qadriyatlari rivojiga siyosiy taziq bilan yo'l qo'yilmadi. Bunday siyosiy zo'ravonlik oqibatida etnosotsiologiya yetarlicha qadrlanmadi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab etnosotsiologiya barcha sobiq Sovet davlatlarda (mustaqil bo'lishgach) yangi impulsda rivojlanishni boshladi. Ko'pchilik jamiyatshunoslar o'zlarining ishlarini etnosotsiologik muammolarga bag'ishlaydilar. Lekin oldin qilingan tadqiqot marksizm ideologiyasi asosida bo'lib, tadqiqotlar bu sohada qattiq cheklangan bo'lsa, endi oxirgi yillar polietnik jamiyat transformatsiyasida etnik

omil rolini anglash (tushunib yetish) bilan xarakterlanadi. Uzoq yil “jimjidlik”dan keyin ijtimoiy fanlar yangi holatga adekvat javob berdi (munosabat bildirdi): chin amaldagi etnoslararo o‘zaromunosabatlarga ob’ektiv ta’riflash imkoniyatini berish, millatlar, regional va global integratsiya orasidagi aloqada yangi tendensiyalarini tahlil qilish.

Qiziqarli nazariy tadqiqotlar bilan Yu.V. Arutyunyan, L.M. Drobijeva, M.O. Mnasakanyan, Z.V. Sikevich, A.A. Susokolov, J.T. Tohenko va boshqalar chiqdilar.

Etnik muammo umumiy ishlar bilan bir qatorda alohida tadqiqotlarda ham E.X. Babamuradov, A. Begmatov, M.B. Bekmuradov, R.Z. Jumaev, A.G. Qahhorov, R.R. Nazarov, I.R. Ochildiev, N.T. Umarova, B.F. Farfiev, A.J. Xolbekov, M. Xolmatov va boshqa o‘zbekistonlik olimlar tomonidan ko‘rilgan.

Sovet davrida muayyan iqtisodiy-siyosiy va mafkuraviy rejim asosida ushlab turilgan, boshqarilgan milliy munosabatlar hozirda O‘zbekistonda qaytadan, yangi ijtimoiy munosabatlar asosida tiklanmoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonning ko‘p millatli davlat ekanligini e’tiborda tutgan holda uning xududida istiqomat qilayotgan millat va xalqlarning ijtimoiy turmushi, o‘zaro aloqasi va shu kabi munosabatlarni sotsiologik tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Zero, “Respublika milliy tarkibining o‘ziga xosligi – uning farqlantiruvchi xususiyatidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Respublikada yashab turgan aholining 70 % dan ko‘prog‘ini o‘zbeklar tashkil qiladi. Ayni vaqtda O‘zbekiston xududida o‘z madaniyati va an’analarga ega bo‘lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashaydi”.

Bugungi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy holat ayniqsa etnosotsial muammolarni o‘rganishni dolzarbligini ko‘rsatdi. Bu o‘zbekistonlik jamiyatning konsolidatsiya jarayonining chuqurlashishi va uning yangi integratsiya darajasiga erishishi bilan belgilanadi. Bu, masalan, yaxlit ijtimoiy ongning, umumfuqaro mentalitetning shakllanishida namoyon bo‘lmoqda. Yaqin o‘tmishda sodir bo‘lgan Farg‘ona, Andijon voqealari qayta takrorlanmasligi uchun O‘zbekistonda bundan keyin ham millatlararo hamdo‘stlikni rivojlantirish, o‘zaro ahil bir oila bo‘lib yashash talab etiladi.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekistonda yashovchi xalqlarning milliy o‘zini o‘zi anglashning, etnoslararo kommunikatsiyalarning usul va shakllarining, bo‘lishi mumkin bo‘lgan etnik to‘qnashuvlarning sabablarining, ularni tartibga solish va hal etish prinsiplarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish ham dolzarb hisoblanadi. Etnosotsiologiyaning asosiy mazmuni hisoblangan bu muammolarni o‘rganish masalani yechishning umummilliy, umumdavlat doirasida – ma’nan va jisman rivojlangan shaxslarni tarbiyalashning amaliy talablari bilan belgilanadi.

Etnosotsiologiyaning metodologiyasi

Sotsiologiyaning boshqa yo‘nalishlaridagi tadqiqotlaridek, etnosotsiologiyada ham kompleks yondashiladi.

Etnosotsiologiyaning ikki fanning o‘zaro tutushgan nuqtasida tutushgan xarakteri etnosotsiologik tadqiqotlar metodologiyasini bir oz qiyinlashtiradi. Birmuncha umumiy prinsip (nuqtai nazar) *faoliyat* prinsipidir. Faoliyat sotsiologiyada insoniy jamiyatning mavjud bo‘lish usuli sifatida, ijtimoiy qonunlarning realizatsiyasi sifatida ko‘riladi. Faoliyat orqali shaxs ijtimoiy munosabatlar sistemasiga qo‘shiladi. Ichki etnik va tashqietnik munosabatlar ularning bir turi bo‘lib, butun ijtimoiy munosabatlar sistemasi bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Shaxsni o‘rganish uchun faoliyat prinsipini qo‘llaganda, etnik guruhga kiritilgan, tadqiqotchilar har xil omillarni tushuntirish uchun

bir qator sotsiologik usullarni ishlatishadi. Bularning hammasi etnosotsiologiyaning metodologiyasini tashkil qiladi.

Ulardan biri *madaniy* (kulturologik) bo'lib, insonlarning xulqi u yoki bu madaniyatning hukm surayotgan qadriyatlari va o'zini tutish (axloq, xulq) qoidalarini orqali ko'riladi va tushuntiriladi.

Boshqa usullar – *insonlarning birgalikdagi ijtimoiy faoliyati orqali dalillarni ko'rish* bo'lib, unda alohida kommunikativ aloqalar paydo bo'ladi. N. Smelzer bu yo'lni “*kollektivistik*” deb nomlaydi. U umumiy kelib chiqish haqidagi tasavvurlar bilan bog'langan insonlarning o'zlarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida guruh tuzishini tushunishga yordam beradi. Bu usul orqali raqobatchilik, to'qnashuvlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Insonlarning etnik hayoti doirasidagi axloqini tushunish uchun *ramziy interaksionizm konsepsiyasi* qo'llaniladi. Bu usul yoqlovchilariga ijtimoiy rollarning o'zaro munosabati sifatida faoliyat haqida til va boshqa ramzlar ko'rinishida mujassamlashgan tasavvur qilish xos.

Psixologik usul etnik guruhning tasavvurida yoki xulqida ma'lum bir darajada etniklik bo'lgan etnik guruhga kirgan insonlarning xulqini shaxs sifatida tushuntirish imkoniyatini beradi. Bu usul har bir millat va xalqning boshqalardan farqli o'laroq rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy o'ziga xosligini batafsil o'rganish va solishtirishga yo'naltiradi. U iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarning ta'siri orqali ularning psixologiyasida spesifiklikni (o'ziga xoslikni) namoyon bo'lishini ko'rishni o'rgatadi. Shunday qilib, etnik identiklik, xulqning motivi, qarashi, ijtimoiy tartiblar, qadriyatlar shaxs va jamiyat o'zaro faoliyatining natijasi sifatida tushuniladi.

Zamonaviy etnosotsiologik tadqiqotlarda ikki metodologik yondashuv ustun turadi:

1. *Birinchi usul* – o'zining tadqiqot markaziga insonni, etniklikning namoyondasi va sohibi sifatida uning faoliyatini, individning milliy munosabatlarda va guruh, boshqalarga qaratilgan ijtimoiy axloqini qo'yadi.

2. *Ikkinchi usul* – munosabatlarning “jamo” (“kollektiv”) shakli, etnik strukturasi (tuzilishi) va o'zining komponentlari, aloqalari, funksiyalari bilan sistemalarni ajratib turuvchi E. Dyurkgeym, T. Parsons, R. Merton ruhida funksional tahlilni ko'zlaydi.

Oxirgi yillarda yangi *uchinchi usul* – *integral* ham shakllandi. Uning asosida shaxsiylik va jamoaviylikning bir butunlikdagi ko'rinishi yotadi. Millat madaniy-psixologik birlik sifatida real insonlarning o'z-o'zini identifikatsiya qilish va o'zining milliy tegishlilikni aniqlash yo'li orqali shakllanadi. Ular “tasavvur” orqali qaysi birlikka tegishli bo'lsalar, o'shaning yaxlitligi va o'ziga xosligini tasavvur qilish imkoniyatini oladilar. Bunday sub'ektiv milliy “tasavvur” quyidagi tashqi ob'ektiv omillar va sharoitlar borligida mumkin: etnik hudud, til, madaniyat, xalqning tarixiy xotirasi, xo'jalik hududida iqtisodiy aloqalar va boshqalar.

Etnosotsiologik tadqiqot metodiga empirik sotsiologiyaning hamma metodlari kiradi. Konkret tadqiqotlar o'tkazishda qo'llanadigan empirik-amaliy metodlar quyidagilardan iborat:

1. *Eksperiment metodi.*
2. *Kuzatish metodi.*
3. *Hujjatlar asosida o'rganish metodi.*
4. *So'rov metodi.*

5. *Empirik-sotsiologik metod (so'rov, anketa, matematik model).*

6. *Matematik metod.*

7. *Statistik umumlashtirish metodi.*

8. *Umummantiqiy metod (analiz, sintez, abstraktlash, umumiylik va hokazo).*

Ularning ichida eng ko'p qo'llaniladiganlari bu – *yozma manbalarni o'rganish, so'rovlar, anketa o'tkazish, kontent-analiz, statistikadir.* Shu bilan birgalikda, *lingvistik, arxeologik, madaniy, psixologik usullar, ichki kuzatuv, kross-madaniy tahlil, case study* (vaziyatni o'rganish) usullari ishlatilishi mumkin.

Masalan, *yozma manbalarni o'rganish metodi* orqali o'rganilayotgan xalqlar va madaniyatlar haqida ishonarli va xilma xil ma'lumot olish mumkin. Bu maqsadda xalqning o'zining tarixi va uning madaniyatining ta'rifidan foydalanilsa, shu bilan birga geograf, etnograf, sayohatchilarning yozuvlari, vakillarining hisoboti va hokazolardan ham foydalaniladi.

Etnosotsiologiyada ichki va tashqi tadqiqot yo'nalishi mavjud:

1. *Ichki tadqiqot yo'nalishi* – bu ayrim etnik guruh tarkibidagi sotsiologik tadqiqotlardan iborat bo'lib, uning ichki, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari o'rganiladi.

2. *Tashqi tadqiqot yo'nalishi* esa etnik guruhlar orasidagi o'zaro munosabatlarni, bir etnik guruhga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarni va ularning ijtimoiy oqibatlari tadqiq qilinadi. Ayniqsa, bir mamlakat hududida yashovchi etnik guruhlarining o'zaro munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish juda muhimdir.

Odatda har xil metodlarning o'zaro faoliyati etnosotsial jarayonlarni tadqiq qilishda ko'proq natija beradi.

Etnopsixologiyaning asosiy metodlari

Etnopsixologiya metodologiyasi asosan 2 xil tadqiqotga tayanadi:

1) “Emic” – tadqiqotda madaniy-spesifik tomonlariga orientirlanish;

2) “Etic” – bu universal, umuminsoniy ruhiy hodisalarga orientirlanish.

Yemic yondashuvning predmeti – bu etnik birlik darajasida etnomadaniy o'zgarishlar va insonning ichki dunyosi. *Yemic* yondashuv psixologik antropologiyaning predmeti. *Yemic* yondashuvda tadqiqotchi muammoni ichidan turib o'rganadi, uni mahalliy aholining ko'zi bilan ko'rib, tushinishga harakat qiladi. Unga ko'ra madaniyat har tomonlama o'rganilgandan keyingina (odatda, dala tadqiqotlaridan so'ng) boshqa madaniyatlar bilan solishtiriladi. Tadqiqotchi ish tuzilishini oldindan qanday bo'lishini bilmaydi, u olimga sekin-astalik bilan ochilib boradi. Bugungi kunda jahonda etnopsixologiyadagi asosiy yutuqlar aynan shu yondashuv bilan bog'liq.

Yetic yondashuvga suyanadigan etnopsixologiyaning predmeti – bu etnik birliklarda va har xil madaniyatlarda ruhiy o'zgarishlarning o'xshashligi va farqini tadqiq qilish. *Yetic* yondashuv «psixologik etnopsixologiyaning», ya'ni qiyosiy-madaniy psixologiyaning predmetidir. *Yetic* yondashuvga ko'ra ikkita yoki bir necha madaniyatlar o'zaro farq va o'xshashliklarni aniqlash maqsadida o'rganiladi. Bunda tadqiqotchi tashqi kuzatuvchi pozitsiyasini egallaydi va madaniyatdan uzoqlashishga harakat qiladi. Bunda ish tuzilishi, gipotezalar tadqiqotchi tomonidan oldindan tuziladi.

Kuzatish metodi:

– tashqi (ob'ektiv kuzatish)

– ichki (sub'ektiv, o'z-o'zini kuzatish)

- erkin kuzatuv
- standartlashtirilgan
- guruh ichida kuzatish
- guruh tashqarisida kuzatish

Kuzatish – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog‘liq ravishda tekshirish, o‘rganish, ma’lumotlar to‘plash metodi.

Bu uslub qo‘llanilganda tadqiqotchi bir qancha qoidalarga rioya qilishi lozim. Chunonchi,

- 1) kuzatish maqsadining aniq bo‘lishi va uning ilmiy maqsadlarga mos kelishi;
- 2) kuzatish shaklini tanlash va kuzatish natijalarini qayd etish usullarini ishlab chiqish;
- 3) ma’lum reja — sxema asosida muttasil kuzatuv olib borish;
- 4) olingan natijalarning asosliligi va ishonchliligini boshqa usullar yordamida tekshirib ko‘rish.

Ye.S. Kuzminning “*Ahamiyatli hodisalarni tavsiflash metodi*” – mohiyati: guruh xarakteristikani tushunish uchun, guruh o‘zini noodatiy holatda qanday tutishi, shunday holatga olib kelgan muammo va ziddiyat yechimini qanday topishi ahamiyat kasb etadi.

Eksperemental metod:

- tadqiqotning ob’ekti va predmetini aniqlash;
- tadqiqotning eksperemental (tajribai) masala va gipotezalarini aniqlash;
- eksperemental holatni yaratish;
- olingan natijalarning miqdoriy (son jihatdan) analizlar, olingan dalillarning ilmiy interpretatsiyasini, ya’ni ilmiy izohini amalga oshirish.

So‘roq metodlari:

- og‘zaki so‘roq
- yozma so‘roq
- erkin so‘roq (suhbat)
- standartlash-tirilgan so‘roq

So‘rov – asosiy metodlardan biri bo‘lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma’lumot olinadi.

Testlar metodi:

- test – so‘rov
- test – topshiriq
- proektiv test
- sotsiometrik test

Test – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo‘llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

Testlar psixologiyadan kirib kelgan usuldir. Bu qisqa sinov usuli bo‘lib, ular yordamida u yoki bu hodisa qisqa muddat ichida bir texnik usul — testda tekshiriladi. Testlarni qo‘llashning qulaylik tomoni — bir test yordamida bir ob’ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta, takror-takror sinab ko‘rish mumkin. Lekin ularni universal deb bo‘lmaydi, chunki u yoki bu testni faqat qanday turdagi ob’ektda sinalgan bo‘lsa, shunga o‘xshash ob’ektlardagina qo‘llash mumkin, qolaversa, bunda olingan ma’lumotlar nisbiy xarakterga ega bo‘ladi.

Testni tuzish, uni ob’ektlarda sinovdan o‘tkazish, xattoki, tayyor testni moslashtirish

yuksak bilimlarni, malakani, olimlik odobini talab qiladigan ishdir. Testlar xususida yana shuni aytish mumkinki, har bir testning o'z "kaliti" bo'ladi va bu kalitning egasida maxsus litsenziyalar, ya'ni kelishuvga ko'ra ishonchli shaxslargagina sotish, berish huquqi bo'ladi. "Kalitsiz" esa maxsus testlarni hech kim ishlata olmaydi.

Test-so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi.

Test-topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi.

Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni soxtalashtirishi mumkinligidir.

S. Rozensveygning rasmlı assotsiatsiyalar usuli – bunda hayotda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda gavgdalanıtırıladi, unga qarshi tomondagi shaxs esa hali javob qaytarib ulgurmagın, tekshiruvchi tekshiriluvchidan tez, qıska muddat ichida bo'sh kataklarga berilishi mumkin bo'lgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo'nalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya-jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muhim faktlar to'planadi.

Eksperiment:

- Tabiiy eksperiment
- Laboratoriya eksperimenti

Eksperiment – o'zgaruvchan mustaqil turli holat va jarayonlarning boshqa nomustaqil holat va jarayonlarga ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlariga tayanadi.

Tabiiy eksperiment – guruhlararo munosabatlarga taalluqli fenomenlarni tabiiy sharoitlarda maxsus reja asosida tekshirib o'rganish.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, maxsus xonalarda, kerakli asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi.

Modellashtirish:

- matematik modellashtirish
- mantiqiy modellashtirish
- texnik modellashtirish
- kibernetik modellashtirish

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi.

Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi – inson psixikasidagi ayrim o'zgarishlarni to'liqroq o'rganish maqsadida qo'llaniladi.

Esdaliklar, kundaliklar, badiiy asardagi tavsiflar, baholar, magnitofon yozuvlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, aqlning (manfaatlar, qiziqishlar) yo‘nalishi, ijtimoiy tartiblar, faoliyat motivi, dunyoga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat kabilarda qo‘llaniladigan usullar (R. Benedikt, A. Kardiner, M. Mid):

- *proektiv testlar (rorshax testi, tematik appersepsiya testlari);*
- *biografiya usuli (shaxsiy biografiya material tahlili);*
- *har xil etnik birliklarning bolalari rasmlarining tahlili;*
- *etnosning xalq og‘zaki ijodi janrlari mazmunining tahlili;*

– *u yoki bu millat, birlikka xos bo‘lgan bolani umumlashtirish yo‘llarini, uni madaniyatga, ijtimoiy roliga, e‘tiqodga aralashtirish yo‘llarini o‘rganish. bu bilimlar shu etnosga xos bo‘lgan shaxsning ijtimoiy xulqini o‘rganish va bashorat qilishga imkoniyat beradi.*

Etnopsixologik tadqiqotlar o‘tkazishni maqsad qilib qo‘ygan har qanday tadqiqotchi asosiy prinsiplar sifatida madaniy muhit sharoitlarining xilma-xilliga va ularning o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishini inobatga olmog‘i zarur. Bu narsa etnopsixologik tadqiqot dasturini tuzishda, albatta hisobga olinishi kerak.

Tadqiqot bir davlatda o‘tkazilmoqchi bo‘linsa, quyidagi narsalarga e’tiborni qaratish lozim:

- mamlakat sharoitida yashovchi barcha millatlarga xos bo‘lgan umumiy psixologik omillar va ularni aniqlash usullari;
- faqat shu davlatning millatiga xos bo‘lgan psixologik sifatlar va omillarni aniqlash;
- aniqlangan omillarni yoki psixologik sifatlarinn o‘lchaydigan yoki eksperimental usulda tekshirishga imkon beradigan metodlarni tanlash va ularni konkret sharoitlarga moslash;
- tadqiqotchilar guruhini tekshirilayotgan milliy guruh tilini, urf-odatini biladigan xodimlar bilan ta’minlash.

1.3. Publisistik ma’lumotlar, rasmiy xujjatlar, tarixiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar, arxiv, statistik qo‘mitalar va h.k ma’lumotlar jalb etish

Har qanday ilmiy tadqiqot aniq mavjudlikni o‘rganish davomida, mavjud ilm hajmini to‘liq jalb etadi. Zamonaviy etnologiyada ilmiy taxlil uchun turli ma’lumotlar: **etnograf olimlar tadqiqotlari va ta’sirlari; sayohatchilar yozmalari; folklor va badiiy matnlar; etnosotsiologik va etnopsixologik tadqiqotlar; publitsistik materiallar; rasmiy hujjatlar, tarixiy va ijtimoiy – siyosiy adabiyotlar va h k o lar** jalb etiladi. Undan tashqari o‘rganilayotgan etnos vakillarini turli vaziyatlarda kuzatish, fikrlash mantig‘i, atrof-muhitdagi vaziyatlarni ifodalashlari, o‘zining hulqi va boshqalarga ham e’tibor qaratiladi.

Bunday rang-barang ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash ham turli uslublarni qo‘llashni talab etadi. Hozirgi kunda etnologiyada: dala tadqiqotlari, yozma manbalarni, xalq og‘zaki ijodini o‘rganish arxeologik va antropologik ma’lumotlarni jalb etish, statistik manbalar (aholi ryo‘xati ma’lumotlari)dan foydalanish lozim.

Yozma manbalarni o‘rganish

Etnologiyaning eng muhim metodlaridan biri bo‘lib, uning qimmati o‘rganilayotgan xalq va uning madaniyati to‘g‘risida aniq va to‘laqonli ma’lumotlar

berishi bilan ajralib turadi. Yozma manbalar nafaqat etnologiya uchun balki, tarix fani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma manbalar asosan insonning ijtimoiy faoliyati, aniqrog'i, kishilarning o'zaro munosabatlari natijasi o'laroq yaratilgan va o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, tarixiy voqealarni aks ettirgan manbalardir. Yozma manbalarga odatda ma'lum bir xalq vakillari hisoblangan mualliflar tomonidan o'zlarining yoki boshqa xalqlarning tarixi hamda madaniyati to'g'risida yozib qoldirilgan qo'lyozma asarlar, tarixiy manbalar kiradi. Shuningdek, yozma manbalarga oliy va mahalliy hukmdorlar mahkamasidan chiqqan rasmiy hujjatlar (yorliqlar, farmonlar, inoyatnomalar va b.), tarixiy, geo-kosmografik hamda biografik asarlar ham kiradi. Yozma manbalar doimiy ravishda bir necha avlod tadqiqotchilari uchun qiziqarli manba bo'lib xizmat qilgan.

Odatda biror bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini o'rganishda rasmiy hujjatlar, moliyaviy-hisobot daftarlari va yozishmalarning ahamiyati benihoyat kattadir. Rasmiy hujjatlar ijtimoiy-siyosiy hayotni ma'lum yuridik shaklda bevosita va ko'p hollarda aynan qayd etilganligi bilan ham qimmatlidir. Lekin ayni vaqtda ba'zan ularning orasida, ayniqsa, rasmiy yozishmalarda soxtalari ham uchrab turishini unutmaslik lozim. Shuning uchun ham mazkur manbalardan foydalanilganda o'ziga xos diqqat-e'tibor va zo'r ehtiyotkorlik talab qilinadi. Hujjatlar ustida ish olib borilganda, aniqrog'i undan biror bir ijtimoiy-siyosiy jarayonni talqin etishda foydalanilganda bir hujjat bilan chegaralanmaslik, o'zaro o'xshash hujjatlarni o'zaro qiyosiy tahlil etib o'rganmoq zarur. Qolaversa, hozirgi kunda bunday tarixiy-madaniy yozuvlar etnologlar qiziqadigan yagona manba turi bo'lib hisoblanmaydi. Ayni kunda turli davrlardagi xalqlarning hayoti va madaniyatiga bag'ishlangan har xil yozma manbalar mavjud bo'lib, ularning ko'p qismi hozirgacha batafsil o'rganilmagan. Bunday yozma manbalar jumlasiga, sayyohlar va geograflarning safarlari to'g'risidagi xabarnomalari, o'tkazilgan turli-tuman ekspeditsiyalar hisobotlari, matroslar va askarlarning yozuvlari, elchilarning hisobotlari, savdogarlarning safarnomalari, oddiy xalq vakillarining davlat rahbarlariga yozgan maktublari va shu kabi bir qator yozma materiallar kiradi.

Xalq og'zaki ijodi. Ularning qiymati xalqning tarixiy ongi bilan bog'liqligidir. Etnologik tadqiqotlar tajribasi qo'shni xalqlar tarixiy ongi ham butunlay farq etishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan ayrim Afrika qabilalari baxshilari XX asr o'rtalariga qadar keyingi 400 yil davomida o'z xukumdorlarining ismlari, ishlari, xalq hayoti bilan bog'liq voqealar, turli sanalarni saqlab hikoya qilib berganlar. Ammo og'zaki ijodiyot boshqa manbalarga nisbatan tez yo'qolib boradi.

Xalq og'zaki ijodiyoti, folllor va etnografiya. Etnologiya uchun xalqning tarixiy tafakkurini aks ettiruvchi *xalq og'zaki ijodi* namunalari ham muhim manba hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodiyoti madaniyatning eng qadimgi sohalaridan bo'lib, uning ildizi insoniyatning eng qadimgi tarixiga borib taqaladi. Og'zaki adabiyotning ayrim na'munalari qadimgi yunon tarixchilari va Tabariy, Ma'sudiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn al-Asir kabi Sharq olimlarining asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Qayumars, Jamshid va Siyovush haqidagi afsonalar, To'maris va Shiroq haqidagi qissalar ham shular jumlasidandir. "Go'ro'g'li", «Alpomish» kabi dostonlar, shuningdek, xalq ertaklari, rivoyatlar, marosim qo'shiqlari, matal va topishmoqlarning roli benihoyat kattadir. An'anaviy urug'-jamoaviy munosabatlar, xo'jalik munosabatlarini, umuman olganda, turkiy xalqlarga xos milliy-etnik qadriyatlarni tadqiq qilishda yozma adabiyotdan avval

paydo bo'lgan bu xalq durdonalari turli ijtimoiy qatlam vakillari hisoblangan kishilarning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, urf-odatlar, ayniqsa, uzoq o'tmish davrlardagi ijtimoiy munosabatlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Qolaversa, etnologik tadqiqotlar jarayonida o'tkazilgan tajriba qo'ni-qo'shni bo'lib yashagan xalqlarda ham ayrim hollarda tarixiy tafakkurning shakllanishi tubdan boshqa - boshqa bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ajdodlari ko'chmanchi yoki yarimko'chmanchilikda chorvachilik bilan shug'ullangan xalqlar hatto hozirgi kungacha o'zlarining ajdodlari shajarasini yaxshi bilishlari bilan birga ularning qaysi urug'ga va shu urug'ning qaysi shaxobchasiga mansubligi, ajdodlari qaerdan kelganligidan tortib ularning an'anaviy mashg'ulot turlarigacha biladilar. Bunday qimmatli manbalar ko'pincha og'zaki ijod orqali ajdodlardan avlodlarga o'tib saqlanib keladi. Xalq og'zaki ijodiga oid materiallar bugungi ulkan globallashuv va zamonaviy etnik jarayonlar ta'sirida jadal sur'atlar bilan yo'qolib bormoqda. Hatto yaqin kelajakda bunday manbalarning ayrimlari butkul yo'qolib ketish xavfi mavjud.

Doston o'zbek folklorining keng tarkalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalkimizning ma'naviy-maishiy kiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axlokiy-estetik karashlari, adolat va xakkoniyat, ozodlik va tenglik, kaxramonlik va vatanparvarlik xakidagi goyalari bilan chambarchas bog'likdir. Asrlar davomida xalkning turmush tarzi, orzu umidlari dostonlar mavzuini, syujet va kompozitsiyasi moxiyatini belgilab bordi. O'zbek dostonlarining ulug'vor poetik umumlashmalari, yuksak badiiy timsollari ularni dunyo folklorining tengsiz namunalari- rus bilinalari, ukrain dumalari, kozok botirlar jiri, kirgiz «Manas»i, korakalpok «Kirk kizi», xind «Maxabxarata»si-kissasi, Garb va Sharkning ulkan eposlari katoriga kuydi

«Doston» so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, shonu shuxrat, ta'rif va maqto'v ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu nom xalk ogzaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik xajmli epik asarlarni anglatadi. Biriok ular xayotni tasvirlash vositalari va usullari jixatidan bir-biridan jiddiy fark kiladi. Xalq ogzaki ijodida doston o'tmish zamonlar tugrisida kaxramonlik idealizatsiyasi kulamidagi xikoyalardir.

Dostonlardagi tarixiy vokelik xalk fantaziyasi asosida umumlashgan timsollarda uz ifodasini topadi. unda umumlashtirishning uziga xos kurinishi - epik umumlashtirish xukmronlik kiladi. Bunday umumlashtirish xalkning ijtimoiy adolat xakidagi ideallari va orzu umidlari bilan yugrilgan.

O'zbek xalk dostonlari juda uzok tarixiy tarakkiyot boskichini bosid utgan. Uning kadimgi namunalari saklanmagan. Kup asrlar davomida ogizdan ogizga utib xalk baxshilari orkali bizgacha yetib kelgan.

Xalq ogzaki ijodining yuksak san'at turi doston va dostonchilikning paydo bulishi tarakkiyoti baxshilar nomi bilan bog'likdir.

Atoqli olim Xodi Zarifovning yozishicha baxshi mo'gulcha va buriyatcha "baxsha" so'zlaridan olingan bulib, "ustod ma'rifatchi" degan ma'nolarini beradi. O'zbeklarda baxshi keng ma'noda xalq dostonchisi dostonlarni kuylovchi, yodda saqllovchi va nasldan-naslga utkazuvchi san'atkordir. Xalq orasida baxshi so'zi ikki ma'noda qo'llangan. Ba'zi joylarda doston kuylovchi, ayrim joylarda afsungarlik, folbinlik, shamanlik qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Uzoq o'tmishda bu ikki vazifani bir shaxs bajaragan. Ko'pchilik yerlarda esa ikkinchi vazifani bajaruvchi shaxs qushnoch, duoxon, kinnachi, kasal boquvchi kabi turli tuman so'zlar bilan ifodalangan. Masalan,

turkmanlarda doston kuylovchi shaxs qozoq va qirgizlarda afsungar, folbinlarga nisbatan baxshi termini ishlatilgan. O'zbekistonda esa, baxshi asosan bir ma'noda xalq dostonchisi, professional san'atkorga nisbatan keng qo'llaniladiki, u o'zbek folklorshunosligida asosiy termin sifatida mustahkam uzlashib ketgan. Mo'gullar istilosi davrida budda dinidagi kalandarlarni, mo'gullarda jarroxlarni, turli xujjat va xatlarni uygur yozuvda kuchiruvchi turkiy xalqlardan bo'lgan kotiblarni, Chigatoy ulusi Oltin O'rda, Qozon, Qrim xonligidagi kotiblarni, Boburiylar davlatigi xarbiy qismlarning xisob kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to'lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro xonligida davlat binolarni qurishda mablag' xisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug' oqsoqollarni xam baxshi deb atashgan.

O'zbekistonning ayrim yerlarida xalk dostonchisini baxshi suzidan boshka yana turlicha nomlarda yuritiladi. Masalan, Surxandaryo, Kashkadaryo yuzboshi, janubiy Tojikiston o'zbeklar orasida soki, Surxandaryo va janubiy Tojikistonning ayrim sozanda Fargona vodiysida sannovchi ayrim tumanlarda jirov, jarchi, okin, oxin, va xokazo. O'zbeklarlarda xalk dostonchisini shoir deb atash xam keng tarkalgan. Shoir arabcha suz bulib, poetik asarlar ijodkori bulgan yozma va ogzaki vakillari sifatida kullaniladi. Uzlarning yangi yangi doston variantlarini xatto, yangi dostonlarni xam yarata oladigan baxshilar shoir deb xam ataladi. Masalan, Fozil shoir Pulgan shoir, Islom shoir va boshkalar.

Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda, kup yerlarda dumbira, ayrim joylarda kubiz yoki dutorda kuylaydilar. Xorazm baxshilari esa, dostonlarni asosan dutorda ijro etadilar, ularga gijjak va balomonda sozandalar jur buladi. XX asrning 30-yillaridan Xorazm baxshilari esa dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. Shu munosabat bilan ayrim baxshilar ansamblida skripkadan foydalanish, ansamblga doirachi, xatto uyinchi olib kirish xollari buldi Xorazmdagi Bola baxshi ansambli bunga misol bula oladi.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turini xalfalar deb yuritadilar. Xalfachilik asosan ayollar orasida keng tarkalgan. Xalfachilik san'ati asosan ikki xil:

- ansamblli xalfalar;
- yakka xalfalar.

Ansamblli xalfalar uch kishtidan iborat- ustoz xalfa(garmon chaladi va kushik aytadi), doirachi (ashulaga jur buladi, goxida raksga tushadi.), va o'yinchilar (qayroq bilan raksga tushadi, yalla va lapar aytadi, ba'zan doira chaladi) Bibi shoira, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardir.

Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar Ular dostonlarni yoddan yoki qo'lyozma va kitobdan yoqimli ohangda o'kish, «Yor-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi to'y ko'shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozongan. Xorazm xalfalari kuprok «Oshiq G'arib va Shoxsanam», «Oshik Oydin», «Kissai Zebo», «Bozirgon» kabi dostonlarni va Maxtumquli she'rlarini, turli marosim ko'shiqlarini va o'zlari yaratgan qo'shiqlarni ijro etadilar. Xalfachilik jozibali va navqiron ayollar san'ati sifatida Xorazm voxasida shu kunlarda keng davom etmokda.

Arxeologik ma'lumotlar. Arxeologik materiallar etnik tarix va madaniyat tarixini tiklashda katta o'rin tutgan. Arxeologik ashyolarni tadqiq etish va baholashda eng zamonaviy usullarni qo'llanilishi (termalyumininessent uslubi) xususan sopol buyumlarni yoshini aniq belgilashga yordam qiladi. So'nggi yillarda arxeologik

ma'lumotlarni o'rganishda statistik metodlardan ham foydalanilmoqda. Uni qo'llash arxeologik materiallarni diqqat bilan tayyorlashni talab etadi. Olingan aniq ma'lumotlar esa etnologik nazariyalar, konsepsiyalar yaratishda xizmat qiladi.

Qiyosiy tilshunoslik. Tilshunoslar turli tillarda ayrim ma'lum so'zlarni taxlil qilish orqali tillarning yaqinligi, qardoshligini aniqlashadi. Ushbu uslub olimlardan o'rgnilayotgan tillarni yaxshi bilishni talab qiladi.

Statistik metod. Bunday ma'lumotlarning qiymat ularning xilma-xilligidan tashqari muayyan tizimiga, tartibga solingani uchun hamdir. Xususan axoli ro'yxati ma'lumtlarida: jins, yosh, ma'lumot, kasb, ijtimoiy holat va h. k. o. lar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyaotlar

1. Mipziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. "O'zbekiston" nashriyoti, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 78b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, O'zbekiston 2023.
4. Mipziyoev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik koidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiniig 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
6. Pandian A. A Possible anthropology method for uneasy times. Duke University Press, Durham and London. 2019.
7. Han F.Vermeulen. Before Boas. The Genesis of Ethnography and Ethnology in the German Enlightenment. University of Nebraska Press, Lincoln & London. 2015.
8. Salimov T.O'. Dala etnografik ekspeditsiyalar o'tkazish usullari. –T., 1993.
9. Arutyunov S.A. Kulturnaya antropologiya / S.A. Arutyunov, S.I. Rijakova. M.: Direkt-Media, 2014. - 217 s. - (Nasledniki Gerodota). - ISBN 978-5-4458-3556-1; [Elektronniy resurs]. - URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=235161>.
10. Pavlova, A.N. Sotsialnaya antropologiya : uchebnoye posobiye / A.N. Pavlova; Povoljskiy gosudarstvenniy texnologicheskiy universitet. - Yoshkar-Ola: PGU, 2016. - 96 s. - Bibliogr. v kn. - ISBN 978-5-8158-1639-8; [Elektronniy resurs]. - URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=459498>

Axborot manbalari

- www.mirknig.com
- www.turklib.com
- www.etnology.com

2.1. Dala ishlarining asosiy turlari.

Etnografik ekspeditsiyalar paytida dala tadqiqotchilarining ishi hamisha xilma-xil va qiziqarlidir. Sababi etnograf har kuni turli xil kishilar bilan suhbatlashishi, yozishi, suratga olishi, ashyolarni, kiyim-kechaklarni chizish, nusxalarni olishi va boshqa ko‘plab ishlarni amalga oshiradi. Ko‘pincha olib boriladigan tadqiqotlar bir-biridan faqat nazariy jihatdan farq qiladi, xolos, lekin dala ishlarida ma‘lum uslublar qo‘llaniladi va ularning har biriga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi.

Dala etnografik tadqiqotlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Etnografning shaxsiy kuzatuvlari.
2. Axborotchilar bilan suxbat.
3. Olingan ma‘lumot va ashyolarni ta‘minlash.
4. Etnografik muzey uchun yig‘malar to‘plash.

Etnograflarning shaxsiy kuzatuvlari ekspeditsiya oldiga qo‘yilgan turli muammolarni hal etishda, qimmatli ma‘lumotlar to‘plashga imkoniyat beradi. Xalqimizning “yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal” maqoli bejizdan aytilmaydi. Zehnli tadqiqotchi uchun aholi yashaydigan geografik muhit, uning o‘ziga xos fe‘l – atvori (dilkashligi yoki tortinchoqligi va x.k.) mahalliy kishilarning o‘zaro suhbatlari ularning hammasi ajoyib etnografik ma‘lumotlardir.

Ekspeditsiyaning har bir a‘zosi kundalik daftar tutishi va unga dala yozuvlari daftariga kirmagan shaxsiy kuzatuvlarini yozib yurishi zarur. Albatta, “qarash boshqa, ko‘rish boshqa”. Etnografning boshqa odam nazariga tushmaydigan narsalarni ko‘ra bilishi, uning kuzatuvchanligiga, zehniga, mutanosib darajada bog‘liqdir. “Ko‘ra bilish” qobiliyati har bir talabaning ekspeditsiya oldidan to‘plagan ilmiga, mazkur etnos madaniyatiga oid rasmlar, ashyolar va boshqa tasviriy asarlar bilan tanishuv boshlanadi. Bunday tayyorgarlik tadqiqotchi ko‘zini va zihnini ancha o‘tkirlaydi.

Kundalik daftarga yana dala ishlari bo‘yicha dastlabki xulosalar, ekspeditsiya yo‘nalishi, yo‘li, vaqti va muddati, uning guruhlariga bog‘liq bo‘lgan boshqa ma‘lumotlar yoziladi. Bo‘lajak etnograf ayniqsa kundaligini tartib bilan to‘ldirishga e‘tibor qilishi zarur.

2. Etnograflarning asosiy ish uslublari axbortchilar bilan suhbatlashish tanlangan etnos vakillari bilan savol-javob orqali ma‘lumotlar to‘plashdir. Etnografik ekspeditsiyaga oid har qanday muammoning muvaffaqiyatli hal qilinishi, xuddi shu axbortchilarning bergan ma‘lumotlari aniq va to‘ltq bo‘lishiga bog‘liqdir. Ko‘pincha mavzularda (jumladan, urf-odat, udum va irimlar) axbortchilar ma‘lumotlari yagona manba hisoblanadi.

Dala ishlarini, shuningdek, axbortchilar bilan suhbatni avvaldan rejalashtirish ancha mushkul. Lekin aholi bilan savol-javobni o‘zi bo‘larchilikka tashlab qo‘yish ham noto‘g‘ridir. Shuning uchun kerakli axbortchilarni topish har qanday ekspeditsiyaning muhim vazifasi bo‘lib, u bilan shug‘ullanishni mahalliy hokimiyat, jamoa tashkilotlari vakillari maslahatlarini e‘tiborga olishimiz zarur. Albatta, mahalliy tashkilotlar rahbarlari o‘zlari ishlaydigan joydagi aholini yaxshi biladilar, natijada axbortchilarni topishda,

ularni tanishtirishda birinchi maslahatchilar bo'lishadi. O'z navbatida, biz ularga ekspeditsiyaning maqsad va vazifalari haqida bafurja ma'lumot berishimiz kerak.

Axborotchilar tanlanganda faqat ularning ismi-sharifi, turar joyi bilan qiziqib qolmasdan, qaysi kasb vakillari bo'lganligini, mazkur joyda qachon yashayotganligini ham aniqlab olishimiz zarur.

Oldingi axborotchilar ro'yxatini tuzish, ularning har biriga qisqa ta'rif-tavsif yozib qo'yish keyingi ishlaringizni unumli bo'lishini ta'minlaydi.

Dala ishlarni boshlagandan keyin, etnografning turli sohalaridan kimdan ko'proq, aniqroq ma'lumotlar olish mumkinligini axborotchilarning o'zlaridan ham bilib olsa bo'ladi. Ba'zida suhbatdoshingizni o'zi u yoki bu narsa haqida, boshqa biron kishining ismi-sharifini aytib, yaxshi bilishini ta'kidlaydi. Sizning vazifangiz e'tiborsiz ish qilmasdan, shunga o'xshash ma'lumotlarni darrov yozib qo'yishdir. Ushbu yo'l bilan biz etnografik ma'lumot berishi mumkin bo'lgan axborotchilar ro'yxatini ish borasida to'ldirib boramiz.

Dala tadqiqotlari paytida, dastlab eng muhim va to'la ma'lumot beradigan axborotchilar bilan bo'lgan suhbatdan asosiy ma'lumotlarni qanchalik haqqoniyligini tasdiqlash, ba'zi joylarni to'ldirish uchun foydalaniladi. Agar vaqt yetishmasa, qo'shimcha axborotchilar bilan suhbatdan voz kechish ham mumkin.

Axborotchi bilan suhbat, uning oldiga kelishdan maqsadni tushuntirishdan boshlanadi. Sizning muomalangiz, dilkashligingiz olinadigan ma'lumotlarning tarixiy, haqqoniy bo'lishini ta'minlaydi. Suhbatingiz bevosita jonli bo'lib, savol - javob "so'roq" tusini olmasligi kerak, axborotchi qanchalik berilib, mufassal gapirsa, ma'lumotlar chuqur, mazmunli bo'ladi, suhbat chog'ida mavzudan uzoqlashib ketmaslik yoki o'zini yo'qotib qo'ymaslik uchun, oldindan tuzilgan savol varaqasi bo'yicha ish ko'rish yosh etnograflarga yordam beradi. Mabodo axborotchi suhbat mavzusidan chetga chiqib ketsa, uning gapini bo'lmaslik, vujudga kelgan vaziyatdan esa biroz dam olish uchun foydalanish mumkin.

Etnograf bergan savollari tor mavzuda bo'lsa, axborotchini esankiratib qo'yishi mumkin. Sababi, ko'pincha ma'lum bir savolga javob bera olmagan kishining suhbatga qiziqishi yo'qoladi.

Har bir xalqning o'z tili, turli viloyatlarda o'ziga xos shevasi bo'ladi, axborotchi bilan suhbat chog'ida mahalliy shevada aytilgan so'zlarni tushunmasangiz, uning mazmunini so'rab, izoh yozib olishingiz kerak. Tadqiqotchi bo'lar –bo'lmasga har hil yo'llovchi savollar bermasligi kerak, sababi, bunday holda axborot beruvchi uchun faqat "ha" yoki "yo'q" deb javob berish imkoniyati qoladi, xolos. Etnoslar xo'jaligiga, moddiy va ma'naviy madaniyatga oid ma'lumot olish uchun ham savolni iloji boricha kengroq mazmunda qo'ygan ma'qul. Misol uchun, "Sizlarda jundan to'qilgan kiyimlar qanday bo'lgan" deb so'rash axborotchi uchun javob qilishga qulay bo'ladi. Gazmolning turi, uni qaerdan olinganligini, ushbu mavzu bo'yicha javob tugagandan keyin so'raganigiz ma'qul.

Savolingiz iloji boricha qisqa va tushunarli bo'lishi zarur, sababi, mahalliy shevada gapiradigan kishi sizning adabiy tildagi uzundan uzoq savolingizni anglamasligi mumkin. Ko'pincha axborotchi gapirayotgan narsalar sizga ma'lum bo'ladi. Shunday holda ham siz, gapni bo'lmasdan, oxirigacha eshitishingiz kerak. Suhbatning "sovub" qolmasligi uchun yangi savollar berib, tadqiq qilinayotgan muammolarni ikir-chikirini ochishga

harakat qiling.

Soʻzlab berilgan axborotning hammasi aniq-ravshan tushunish, mahalliy shevada aytilgan soʻzlarni, iboralarni yozib olish muhim vazifadir. Agar suhbatning biron joyini yozishga ulgurmasangiz, uni aniqlamasdan axborotchining huzuridan ketmaslik kerak. Suhbatdoshingiz aytib bergan moddiy madaniyat, xoʻjalik qurollari, ashyolari boʻlsa, ularni koʻrsatishni soʻrashingiz, suratga tushirishingiz yoki rasmini chizib olishingiz zarur.

Koʻpincha axborotchi bilan ishlash davomida, ularning mehmonlari yoki qoʻshnilari gapga aralashadi, bunday ommaviy suhbat qurish uchun foydali boʻlsa, unga halaqit bermaslikka harakat qiling. Har qanday holatda suhbatdoshlarning fikri bir joydan chiqmasa ham, siz xolis kishi boʻlib qoling.

Amalda jonli suhbatni yozib olish ancha mushkul ish boʻlib, koʻpincha uning yarmini yozib ulgurish mumkin, xolos. Shuning uchun suhbatni toʻliq emas, balki asosiy mazmuni yoziladi, uni muhim vazifasi har qanday mahalliy shevadagi atamalar, ularning mazmuni, tub aholi madaniyatining oʻziga xos tomonlarini toʻliq yoza bilishi zarur.

Axborotni yozish borasida soʻzlarni bir-biridan uzoqroq –siyraklashtirib yozgan maʼqul, sababi, koʻpincha olingan maʼlumotlarni shu joyning oʻzida toʻldirish imkoniyati tugʻiladi. Umuman suhbat tugashi bilan yozuvni qayta koʻrib chiqish va zarur joylarni toʻldirib qoʻyishga oʻrganmoq kerak. Bu ishni shu kunning oʻzida bajarmasangiz, qisqartirishlarning baʼzilarini unutish mumkin, yozuvlarni kechqurun koʻrib chiqish, ertasiga zarur boʻlgan ishlarni aniqlashda ham qoʻl keladi.

Axborotchilardan olingan maʼlumotlarning qanchalik toʻliq va haqqoniy boʻlishidan qatʼiy nazar, ularni boshqa kishilar bilan suhbat orqali tekshirishga oʻrganing. Bunday tekshuruv mahalliy aholini tadqiq qilishning asosiy vazifasidir. Agar tadqiqotlar natijasining haqqoniyligi ekspeditsiya paytida aniqlanmasa, bunga boshqa imkoniyat tugʻilmasligi mumkin.

Etnografik maʼlumotlarni toʻplash paytida axborotchilarning keksa avlod vakillari (60 yoshdan oshgan), faqat oʻzlarining koʻrgan kechirganlarinigina emas, balki ota-bobolaridan eshitgan, bilgan voqealar haqida ham soʻzlab beradilar. Ushbu etnografik maʼlumotlar biz istaganchalik aniq va toʻliq boʻlmasada, siz suhbatdoshingizning oʻsha paytda necha yoshda boʻlganligini aniqlab, aytilgan voqealarning nechanchi yillarda boʻlganligini hisoblab chiqing. Amalda ikki avlod orasidagi farq 25-30 yil (baʼzida 30-40 yilgacha) boʻladi, demak, axborotchi xotiralari orqali biz 100-150 yil oldingi tarixiy muhitni, maishiy turmushni, madaniyatning turli sohalarini aniqlashimiz mumkin.

Axborotchilar bilan suhbatni ikki kishi olib borgan maʼqul. Agarda bir kishi ishlayotib, savol berish va yozishning birdaniga boʻlishi, baʼzan toʻxtatishlarga, axborotchi diqqatining boʻlinishiga olib keladi va etnografiya ancha qiynab qoʻyadi. Ikki kishining hamkorlikda ishlashi esa, ularning biri suhbatni olib borishi, ikkinchisi chetroqda bamaylixotir yozishi mumkin. Bunday xolatda yozayotgan kishi suhbatlashayotganlar nazaridan chetroqda boʻlib, bu esa, oʻz navbatida, axborotchi hayolining boʻlinmasligiga yordam beradi. Tadqiqotchilarning mavzulari turli xil boʻlsa, suhbatni navbat bilan olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Demak, bu uslubda uzoq vaqt davomidagi hamkorlik, ularning tushunishlariga, kerak joyda toʻxtab, savolni takrorlab yozayotgan sherigining ishini yengillashtirish imkonini yaratadi. Ushbu yoʻl bilan olingan maʼlumotlar mazmunli va koʻproq boʻladi.

Axborotchi bilan suhbatni hamisha xam erkin yozib olib bo'lmaydi. Ba'zida kishilar turli sabablarga ko'ra, ularning suhbatlarini yozganingizdan hadiksirashi, hijolat tortishi mumkin, bunday xollarda ma'lumotlarni yodda saqlash va imkoniyati tug'ildi deguncha, o'sha kunning o'zidan qoldirmasdan, yozib qo'yish lozim. Yozuv oxirida uning qanday uslubda bo'lganligini ilova qilib qo'ying.

O'rta Osiyo tarixiy etnografik viloyatida o'nlab millat vakillari yashaydilar. Etnografik ekspeditsiya paytida ishimizning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan asosiysi-mahalliy aholinning tilini bilishdir. Ma'lum sabablarga ko'ra, axborot olinadigan kishining tilini bilmasangiz, tarjimondan foydalanish tavsiya qilinadi. Tarjimonlik uchun taklif qilingan kishi mahalliy aholi hurmatiga sazavor bo'lishi kerak. Ishni boshlashdan avval, siz unga ekspeditsiya maqsadi va vazifalarini tushuntirishingiz, berilgan axborotdagi voqealikni "bo'yab" ko'rsatmaslikni tayinlashingiz kerak.

Ashyoviy dalillarni belgilashdagi asosiy talab – topilgan narsani va o'rganilayotgan voqealikni o'ziga xosligini aniq yetkazishdir.

Ashyoviy dalillarni ta'minlashda voqealik va tekshirilayotgan narsalarni tasvirlash muhim o'rin tutadi. Bu borada ma'lum tartibga rioya qiling. Masalan, uy-joylarni tadqiq qilganingizda, dastlab uy qurilishidan avval qilinadigan urf-odat, udumlar, keyin poydevor, undan tom, romlar va eshiklar to'g'risida yozishingiz kerak. Mabodo nikoh to'yini o'rganmoqchi bo'lsangiz, avval sovchilik (respublikamizning ba'zi joylarida "og'iz iskar deb aytishadi"), keyin non sindirish, fотиha to'y berish, nikoh to'yi va nihoyat to'ydan keyingi urf – odat hamda udumlarni tasvirlashingiz lozim.

Tasviriy usullar: rasm solish, chizish, nusxa ko'chirishlardan iborat. Etnografik rasm chizish, umuman olganda, katta mahorat talab qilmaydi va har bir kishi uning oddiy uslublarni o'zlashtirishi mumkin. Turli xil ish qurollarining rasmini, ba'zida moddiy madaniyatning o'ziga ashyolarni ko'lamli chizish, uning turli qismlari, nomlarini shu chizmaning o'ziga yozib qo'yish, etnografik ma'lumotlarning qiymatini oshiradi.

Ko'lamli chizma yordamida uy-joylar, ish qurollari, kiyim-kechak bichimlari, idish va uy-ro'zg'or bo'yumlarining rasmini qog'ozga tushirishingiz mumkin. Dala etnografik ekspeditsiyalarida chizmachilik va rasm chizish ko'pincha qo'shib olib boriladi. Nusxa olishda ko'pincha kal'ka yoki yupqa qog'oz orqali turli xil kashtalar, zeb-ziynat buyumlarini tasvirlashda foydalaniladi.

Suratga olish: fotoapparatdan foydalanishni bilishdan tashqari, ekspeditsiya davrida turli xil narsalarni to'g'ri suratga olish bilan bog'liq maxsus adabiyot va oynomalardan foydalanish, uning bu sohadagi mahoratini oshishga yordam beradi.

Etnografik to'plam to'plash: Hech qanday surat yoki rasm ashyoning asl nusxasi o'rnini bosa olmaydi. Hozirgi kunda keng miqyosda sodir bo'layotgan zamonaviy etnik jarayonlar, etnograflar uchun eng muhim bo'lgan xalqimizning moddiy madaniyati, xo'jalikdagi ashyolarning yo'qolib ketishiga olib kelmoqda. Shuning uchun etnograflarning ekspeditsiya paytidagi asosiy vazifalardan yana biri uchragan madaniyat ashyosini daftarga qayd qilishi, axborotchining roziligi bilan ulardan namunalar olishdir. To'planadigan buyumlarning, bir butunini tashkil qiladigan narsalarning to'liq yig'indi (komplekt) bo'lishini ta'minlash kerak. Misol uchun, kiyimlar yig'imini to'plashda, oyoq kiyimidan boshlab, to bosh kiyimigacha hammasini yig'ish va iloji boricha, bir oiladan bir kishiniki, hech bo'lmaganda, bir etnik guruhniki, ma'lum joyniki bo'lishiga harakat qiling. Kiyimlarni belgilash: qaerdan ekanligini, uning bilan bog'liq biron voqea,

hodisalar bo'lsa, yozib qo'yish lozim.

To'planadigan ashyolarni qayd qilish uchun ekspeditsiyada alohida daftar tutiladi. Agar bizni qiziqtiradigan narsani olish imkoniyati bo'lmasa, uning qaerda ekanligini, egasi xaqida ma'lumotlarni, muzey, ilmiy muassasalarga xabar qilmoq kerak. Etnografik ekspeditsiyalar to'plamlar sotib olish uchun, albatta ma'lum miqdorda pul bilan ta'minlanishi zarur. Bularning hammasi ekspeditsiya dala ma'lumotlarni yanada boyitadi.

2.2. Kuzatish turlari

To'g'ridan-to'g'ri, ichkaridan va ishtirokli kuzatuv. Etnograflar – kundalik hayotning barcha tomonlariga, yil fasllari va boshqa o'ziga xos jihatlar, jumladan shas va guruh faoliyatini diqqat bilan kuzatishi zarur.

Kuzatuv muddati: Bir yil va undan ortiq muddat (uzoq muddatli statsionar metod). Buning natijasida ular ma'lum bir jamoaning bir yillik hayotini kuzatish imkoniga ega bo'ladilar.

Bir yildan oshiqroq muddat davomidagi dala tadqiqotini olib borish orqali etnograf dastlabki "begonalishish" (madaniy hayrat) jarayonida qayd etishni unutgan jihatlarni mukammal tasvirlab olishiga imkon yaratadi.

Ishtirokli kuzatuv – Nadin Nikok Kongoning Efe jamoasini o'rganish misoli.

Bevosita qatnashuv: Bevosita qatnashuvga misol tariqasida K.Kottakning 1965-1967 yillarda Janubi-Sharqiy Afrika sohilining Madagaskar orolida va Braziliyada olib borgan tadqiqotini misol qilib keltirish mumkin.

U 14 oy Magaskar orolida yashab, u yerdagi Betsileo jamoasi hayotini bevosita kuzatgan.

U hosilni yig'ish faslida va sholilarni yetishtirish, vafot etgan qishloq oqsoqolini qayta dafn etish marosimi, chaqaloqlarni cho'qintirish jarayonida qatnashdi. Bu ularni barchasini bevosita kuzatuv asosidagina o'rganish mumkinligini ta'kidladi.

Intervyu jadvali tahlil:

- Intervyu jadval bilan birgalikda etnograf odamlar bilan yuzma-yuz suhbatlashadi, savollar beradi va javoblarni yozib oladi.
- Sifatli ma'lumotlar yig'ishga imkoniyat beradi.
- Har xil odamlar uchun mo'ljallangan savollarni asosiy tuzilmasi kiritilgan bo'ladi.

To'g'ridan-to'g'ri va shaxssiz o'tkazish imkonini beradi.

2.3. Kuzatishga tayyorgarlik: reja va dasturlar, kuzatish vositalari orqali natijalarni qayd etib borish

Xalqlarning maishiy turmushi, madaniyati va ijtimoiy hayotini o'rganish etnografi fanida ikki xil uslub: statsionar (uzoq muddat bir joyda yashash va kuzatish) yoki ekspeditsiyalar orqali olib boriladi. Uzoq muddatli etnografik tadqiqotlar umuman o'rganilmagan yoki kam tadqiq qilingan etnik guruhlar va xalqlarning madaniyati, maishiy turmushi, tili va irqiy xususiyatlarini tekshirishda qo'l keladi. Hozirgi paytda bunday etnoslarning nihoyatda kam ekanligi, statsionar uslubning amalda ahyon-ahyonda qo'llanilishiga olib keldi. Statsionar tadqiqotlarning eng katta kamchiligi o'rganish joyi,

aholi sonining tor diorada bo'lishidir.

Shu bilan birgalikda, uzoq muddatli etnografik ekspeditsiyalarning afzalliklari ham ko'p, jumladan, etnografning uzoq muddat davomida ma'lum aholi orasida yashashi va tadqiqot o'tkazishi, g'oyat chuqur ilmiy asoslangan xulosalarning yaratilishiga imkon beradi.

Statsionar uslubning muvaffaqiyatli natijalari sifatida N.N.Mikluxo-Maklayning¹ ovrupaliklar qadami yetmagan Yangi Gvineyaning shimoliy - sharqiy qirg'og'ida 1871-72, 1876-77 va 1883 yillarda (umumiy muddati 3 yilga yaqin) papuaslar orasidagi olib borgan tadqiqotlarni ko'rsatishimiz mumkin. Uning Kruzail va King Vilyam burunlari o'rtasidagi, 150 mil masofadagi qirg'oq aholisining hayoti hamda faoliyatini o'rganganligini kundaliklaridan bilishimiz mumkin.

N.N.Mikluxo-Maklayning papuaslar xo'jaligini, moddiy madaniyatini, urf-odat va udumlarini, o'ziga xos san'atini tasvirlab yozgan ma'lumotlari hozirgi kungacha etnografik tadqiqotlarning namunali ko'rgazmasidir.

Bu borada namunali tadqiqotlar qatoriga V.G.Vagoroe va L.Ya.Shternberglarning o'zlari yashagan joylar tub aholisining madaniyati, xo'jaligi haqida yozib qoldirgan qimmatli ilmiy ma'lumotlarni ko'rsatish mumkin.²

Mashhur amerikalik etnograf olimi Margaret Mid 1927 yili Samoa orolida, 1928-29 yillari Admiralteystva orollarida manus qabilalari bolalarini, 1930-33 yillarida Yangi Gvineya papuaslari, arpes, mingdugmor, yatmul va chanbullarni, nihoyatda 1936-39 yillarda Bali (Indoneziya) oroli aholisini o'rgandi va 25 dan ortiq ilmiy asarlarni yaratdi. Uning yetti asari jamlangan to'plami yaqindagina nashrdan chiqdi. "Madaniyat va bolalar dunyosi" kitobi etnografik tadqiqotlar bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan kishiga asosiy qo'llanma bo'lib qolishi tabiiydir.³

Keyingi yillarda tadqiqotlar o'rniga ko'pincha uzoq va qisqa muddatli ekspeditsiyalar uyushtirish keng tarqalmoqda. Hozirgi kunda etnograflar asosiy ma'lumotlarni xuddi shu uslubda to'plashmoqda. Bunday etnografik dala ekspeditsiyalari, ularning oldiga qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib, bir necha haftadan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Ushbu tadqiqotlar paytida ancha yirik tumanlar qamrab olinib, bir necha guruh aholi o'rganilishi mumkin. Bunga o'xshash ekspeditsiyalar o'z oldiga turli xil maqsadlarni qo'yishi (moddiy madaniyati, oilaviy munosabatlar, urf-odatlarni va h.k.) tadqiq qilishi mumkin, lekin biz iloji boricha xalq madaniyatining uzoq tadqiqot talab qilmaydigan tomonlarini tanlashimiz zarur. Jumladan, qisqa muddat ichida tadqiq qilish uchun uy joylar, kiyim – kechak, taom va moddiy madaniyatning boshqa sohalarini tanlashimiz mumkin. Umuman etnografik ekspeditsiya uzoq muddatli - statsionar tadqiqotni talab qilmaydigan muammolarni yechishda qo'l keladi.

Suhbat, muloqot va muloqot jadvallari:

- Mahalliy muhitning ishtirokchisi bo'lish, etnografning doimiy ravishda kuzatilayotgan jarayonlarda qatnashib, ular haqida odamlar bilan bevosita muloqot olib borishni angalatadi.

¹ Миклухо-Маклай Н.Н. Собр.соп.т.т М:- Д изд АН СССР 1950-54

² Богораз В.Г., Чукчи Ч.Ч. 1-П. Л.: Наука, 1934-39.

³ Мид.М. Культура и мир детства. М.: Наука, 1988.

Dala ishi olib borilayotgan jamoa tilini o'rganishning bir necha bosqichlari mavjud.

- Birinchi bosqich – nomlash – atrofdagi buyumlarning nomini surishtirish. Keyinchalik murakkab tuzilishdagi savollar bera boshlaymiz va shu o'rinda ularga beriladigan javoblarni ham o'z-o'zidan anglab yeta boshlaymiz. Tilni o'rganishda tajriba orttirish muhim. Lekin ommaviy munozaralar va guruh suhbatlarida, diniy marosimlar liturgiyadan iborat bo'lganligi uchun keyinchalik yozib olingan matnni mutaxassis bilan tahlil qilish lozim.

2.4. Ishtirokchilarni kuzatishni tashkil etish: uslubiy va etika (ahloq) muammolari


Etnologiyani fan sifatida shakllanishida dala tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi. Bu uslub mustamlaka xalqlar hayoti haqida ma'lumotlar to'plashda ayniqsa qo'l kelgan. Tadqiqot muddati 1 yildan kam bo'lmasligi lozim. Statsionar uslubning muhim jihati etnologning o'rganayotgan aholisi kundalik hayoti ishtirokchisiga, guvohiga aylanishidir. Hozirgi kunda etnologiyada shoshilinch yoki mavsumiy tadqiqotlar ko'proq aholini qamrab olish uchun, marshrutli (yo'nalishli) yo'sinda o'tkaziladi. Uslubning kamchiligi etnos hayotini mavsumlar oralig'ida kuzatish imkoni bo'lmasligidir.

Dala tadqiqotlari moddiy va ma'naviy madaniyatga oid ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Moddiy madaniyat sohalari: uy-joylar, kiyim-bezaklar, taom va idishlar, chizma rasmlarda aksini topadi. Ma'naviy madaniyat sohalari an'analar, urf-odat, udumlar: kino, foto va videokameralar yordamida tasvirga tushiriladi. Dala tadqiqotlari davomida muzey uchun ekspanatlar to'planadi.

3-MAVZU TURLICHA MA'LUMOTLARNI TO'PLASH, ULARNI QAYTA ISHLASH, UMUMLASHTIRISH, TURLICHA METODLARNI QO'LLASH

Etnografik ekspeditsiyalar paytida ikki usul bilan ma'lumotlar to'planadi: to'pli (kustovoy) va yo'nalishli (marshrutniy). Yo'nalishli tadqiqotda doimo harakatda bo'linadi, rejalashtirilgan rayonlarda ekspeditsiya uchun tanlangan aholi punktlari ma'lum yo'l ustida joylashgan bo'lishlari kerak. Tadqiqotchilar ana shu aholi yashaydigan joylarda 2-3 kun to'xtab, ma'lumot to'playdilar.

Yo'nalishli tadqiqot chizmasi:



To'pli tadqiqot uslubida rejada yirik aholi yashaydigan joy ekspeditsiya bazasi qilib tanlanadi. Mazkur joyni o'rganishga ko'proq vaqt (6-7 kungacha) sarflanib, to'plangan ma'lumotlarga aniqlik kiritish maqsadida, uning atrofidagi kichikroq qishloqlar aholisi esa har biri 1-2 kun davomida o'rganiladi.

Agar ekspeditsiya tarkibida etnograflar soni yetarli bo'lsa, har bir talabaga (yoki ikki – uch kishiga) alohida mavzu berilishi maqsadga muvofiqdir. Buning natijasida kengroq joyni va ekspeditsiyaning hamma mavzularini qamrab olish imkoniyati tug'iladi.

To'pli tadqiqotlarni yo'nalishli uslub bilan qo'shib olib borish ham mumkin. Keyingi yillarda qardosh mamlakatlardagi tarix instituti etnografiya bo'limi xodimlari bilan uzoq muddatli tadqiqotlar o'tkazish uchun ma'lum qishloq aholisini tanlab (misol uchun. Namangan viloyatidagi Ayqiron qishlog'i, 1950-1955 yy, Farg'ona viloyatidagi Vodil qishlog'i, 1990 yy.) keng va chuqur rejali dasturlar bo'yicha ish olib bormoqdalar. Bu borada kafedramiz tarix fakulteti talabalarini etnografiya sohasi bo'yicha ixtisoslashishini boshlar ekan (kelajakda shunday bazaga ega bo'lish) ilmiy tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga yordam berishi muqarrar.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarix instituti, etnografiya bo'limi xodimlari bilan xamkorlikda 1988 yili boshlangan etnografik dala ekspeditsiyalarimiz keyingi yillarda mustaqil davom ettirildi. Natijada, o'tkazilgan beshta ekspeditsiya o'lkamiz xalqlarini o'rganishdagi muammolarni aniqlashda, talabalarni amaliy tajriba bilan boyitish

imkonini beradi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, xalqning ijtimoiy hayoti, maishiy turmushi, oila va oilaviy munosabatlari, urf-odat hamda udumlarini tadqiq qilishda uzoq muddatli (ba'zi holatlarda, hatto statsionar) ekspeditsiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Hayotning ushbu sohalarini, halq ichida "yashab", uning ishonchini qozonmasdan, qisqa muddatda tushunish qiyin.

Hozirgi kungacha dala etnografik tadqiqotlarning asosiy ob'ekti qishloqlardir. Agar qishloq aholisi etnik jihatdan bir xil bo'lsa, uning madaniyati va maishiy turmushida etnik o'ziga xosliklar ham umumiydir, natijada bunday joylar tadqiqot birligi sifatida tanlanishi mumkin. Mabodo tanlangan joyda yashovchi axoli ko'pmillatli yoki turli etnoslardan iborat bo'lsa, ularning har biri alohida, mustaqil etnik guruh sifatida o'rganiladi. Zamonaviy shahar aholisini o'rganishda etnik belgi asos bo'la olmaydi. Shuning uchun shahar aholisi tadqiq qilinganda turli xil sinflar, sotsial toifalar, kasblar, madaniyati va maishiy turmushi, o'ziga xosliklari e'tiborga olinishi zarur.

Dala etnografik ekspeditsiyalari davomida biz axborotlardan olingan ma'lumotlarimizga nisbatan asosiy talab, ularning haqqoniy (reprezentativ) bo'lishidir. Ekspeditsiya vazifalari va maqsadlarga binoan, ma'lumotlarning haqqoniyligi ikki xil uslub bilan ta'minlanadi. Asosiy uslublar: tanlab va yalpi tadqiqotlar o'tkazish.

Tanlab etnografik tadqiqot o'tkazishda etnik xususiyatlari jihatdan o'zaro yaqin qishloqlardan birontasini olib, chuqur o'rganiladi, qolganlari esa olingan ma'lumotlarni aniqlashtirishda foydalaniladi. Ushbu uslubning afzal tomoni, etnografning ma'lum joy aholisini qisqa vaqt ichida chuqur tadqiqot qilish imkoniyati bo'lishidir. Tanlab tadqiqot o'tkazishda, qishloqni tanlashda sub'ektiv bir taraflama yondashish orqali xatoga yo'l qo'yish mumkin. Shuning uchun ekspeditsiyadan avval har xil tuman aholisi haqida to'liq tarixiy, etnografik, statistik ma'lumotlarga ega bo'lish yuqorida ko'rsatilgan xatolarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

Tanlab tadqiqot o'tkazish ko'pincha maishiy turmush va madaniyatning an'anaviy, qadimgi shakllarining (uy-joy, kiyim-kechak) saqlanib qolishi, kamdan-kam uchraydigan xoldir. Xalq an'analari, urf-odat va irimlari bundan mustasno, sababi, etnik an'analarda madaniy xususiyatlar madaniy, maishiy turmushda aytarli o'zgarishsiz yuzlab va minglab yil saqlanishi mumkin. Ushbu yo'l bilan olingan ma'lumotlar xalqimizning o'tmish madaniy tarixini tiklashga yordam beradi. Lekin madaniyatning zamonaviy shakllari tez rivojlanayotgan (savdo, transport, matbuot, televidenie va radio) bugungi kunda madaniyat va maishiy turmushni tanlab tadqiqot qilish hamma vaqt kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun zamonaviy, madaniy va etnik jarayonlarni o'rganishda yalpi tadqiqot o'tkazish uslubi to'g'ri va asosli ma'lumotlar olishda foydalidir.

Yalpi tadqiqot o'tkazishda etnografiya sohaları qatorasiga o'rganiladi: jumladan, uy-joylarning barchasi, mavjud oilalarning hammasi va x.k. Yoppasiga o'tkazilgan tadqiqotlar ko'plab ma'lumotlarni to'plashga, ularning keyingi ishlashda-statistik tadqiqot uslublari, EHM (elektron hisoblash mashinalari) va kompyuterni qo'llash imkoniyatini beradi.

Yoppasiga tadqiqot uslubining to'liq bo'lmagan chegaralangan shakli tanlanganda (misol uchun 2000 oiladan 200 tasi yoki kiyim-kechaklardan bir yoki ikki turi) etnograflar nihoyatda ehtiyot bo'lishlari zarur. Buning uchun oldingi o'tkazilgan etnografik tadqiqotlar ma'lumotlardan, tajribasidan keng foydalanishimiz mumkin.

Amalda bu ikki uslub vaziyatga qarab tanlanadi va zarur bo'lsa, qo'shib olib borilishi, muayyan uslubga tanlanishi esa, ayrim shaxslarning hohishi bilan emas, ekspeditsiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqishi shart. Maishiy turmush va madaniyat bo'yicha etnografik ma'lumotlar ommaviy so'roq varaqalari (anketalarni) to'ldirish orqali ham to'planadi. So'roq varaqalari tuzishida undagi qo'yilgan savollar aniq – ravshan bo'lishi, javoblarning esa to'liq bo'lishiga erishish uchun harakat qiling.

Oxirgi yillarda etnografiya fanida zamonaviy etnik jarayonlarni tadqiq qilish borasida ish olib boradigan etnosotsiologiya sohasi vujudga keldi. Etnosotsiologlar tuzgan so'roq varaqalari ikki xil uslub bilan to'ldiriladi: birinchisi, pochta orqali yuborilgan anketalarga o'zi mustaqil javob bersa, ikkinchisi, so'roq varaqalarini ekspeditsiya paytida etnograflarning o'zi to'ldirishidir. Birinchi xildagi so'roq varaqalari savollari sodda, tushunarli tuzilishi talab etiladi. Bunday turdagi anketalar etnografik ma'lumotlarga ba'zi aniqliklarni kiritish, qo'shimcha ma'lumotlar olishga mo'ljallangan.

Etnograflar o'zlari to'ldiradigan so'roq varaqalarining qanchalik murakkab tuzilishi ekspeditsiya maqsad va rejalariga bog'liqdir.

So'roq varaqalari bilan ishalning eng zarur sharti, uning tarixiy bo'linishini ta'minlashdir. To'plangan ma'lumotlarimiz etnografik jihatdan, faqat statistik tasvir bo'lsa, uning qiymati deyarlik bo'lmaydi. Anketalar to'ldirishdan oldin o'rganilgan aholi guruhini ma'lum muddatdan so'ng qaytadan tadqiq qilish muhim siyosiy ma'lumotlar beradi.⁴

Etnosotsiologiya sohasida olib borilgan namuna e'tiborga loyiq tadqiqotlar sobiq SSSR Fanlar akademiyasi etnografiya institutida olib borilgan edi. So'roq varaqalarini zamonaviy etnik jarayonlarni tadqiq qilishda ishlatar ekanmiz, biz u bilan chegaralanib qolmasdan, dala etnografik tadqiqotlarning boshqa uslublarini ham qo'shib olib borishimiz muhim ilmiy xulosalarga olib keladi.

3.2. Etnografik ekspeditsiyani tayyorlash

Etnografik ekspeditsiyani tayyorlash, bir-biriga o'xshamaydigan ikki xildagi jarayonlardan iborat. Ularning birinchisi, ilmiy tayyorgarlik bo'lsa, ikkinchisi, muhim soha – ekspeditsiya ishlarini moddiy jihatdan ta'minlashdir.

Ilmiy tayyorgarlik bo'lajak ekspeditsiya a'zolari tomonidan tanlangan mavzu bo'yicha ma'lum ma'lumotlarni aniqlab, bo'lajak tadqiqotlarning hajmi va vazifalarini belgilashdan boshlanadi.

Etnografik ekspeditsiyaga ilmiy tayyorgarlik butun o'quv yili davomida olib boriladi. Unda mazkur viloyat aholisi bilan bog'liq tarixiy, etnografik, statistik ma'lumotlar sinchikovlik bilan o'qilib, ma'lum ilmiy material to'planadi. Bu borada imkon boricha etnografik muzey to'plamlari, grafik materiallar, suratlar va h.k. bilan tanishish bo'lajak ishimizga yordam beradi.

Tanlangan joyning jo'g'rofik holatini, iqlimi, suv manbalari yo'llarini bilishimiz ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Ularning hammasi aholining xo'jalik faoliyatini

⁴ Арутюнян Ю.В. Опыт социологического изучения села. М.:Наука, 1958.

Пименов В.В. Удмурды. Опыт компонентного анализа. Л.: Наука. 1977.

Арутюнян Ю.В. Социальная структура сельского населения СССР. М.: Наука, 1979.

Дробижева Л.М. Духовная общность народов СССР. Историко-социологический очерк межнациональных отношений. М.: Наука, 1981.

belgilab qolmasdan, ekspeditsiyani o'tkazish vaqtini aniqlashimizda ham qo'l keladi. Ilmiy tayyorgarlik faoliyat rejasi tuzish bilan yakunlanadi. Ekspeditsiya ilmiy faoliyati rejasidan tadqiq qilinishi zarur bo'lgan muammolar o'z aksini topadi, ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatiladi. Masalan:

- a) faoliyat rejasining kirish qismida ekspeditsiyani maqsadi va asosiy vazifalari;
- b) ekspeditsiya paytida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan xalq madaniyati, maishiy turmushining turli sohalariga oid mavzu (mavzuchalar) nomlari;
- v) tadqiqotlar o'tkaziladigan joylar va ekspeditsiya yo'llari.
- g) etnografik ekspeditsiyaning umumiy muddati va har bir qishloqdagi ish vaqti;
- d) qatnashchilar ro'yxati va har birining shug'ullanadigan ish mavzusi;
- ye) dalada ishlash davomida e'tibor qilinishi zarur bo'lgan metodik ko'rsatmalar va tadqiqotlarning asosiy uslublari o'z aksini topadi.

Faoliyat rejasiga qo'shimcha ekspeditsiya uchun zarur bo'lgan turli xil xujjatlar, tuman, qishloq kengashi rahbarlari nomiga rasmiy xatlar, zarur so'roq varaqalari va x.k lar tayyorlab qo'yiladi. Ekspeditsiyada birinchi bor qatnashayotgan talabalar uchun savollar varaqasini tuzish ham maqsadga muvofiqdir. U orqali ekspeditsiya a'zolarining kundalik ishlarini nazorat qilish, keyingi ish rejasini tuzish osonlashadi. Mufassal tuzilgan savolnoma asosida, eng zarur muammolarni aniqlashda yordam beradigan 20-30 banddan iborat kichikroq savollar varaqasi tuzilib, undan axborotchi bilan suhbat paytida ham foydalanishimiz mumkin.

Etnografik ekspeditsiyalarni moddiy jihatdan ta'minlashda quyidagi ko'rsatmalar e'tibor qilishimiz zarur. Zamonaviy texnik vositalarning yildan-yilga ko'payib, murakkablashib borishi etnografik tadqiqotlar olib borish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratmoqda.

Buning uchun, albatta, moddiy asos yaratishimiz, dala ishlarini o'tkazishni yengillashtiradigan, ma'lumotlarning ilmiy sifatini oshiradigan fotoapparat, magnitafon, kinoapparatlarni ekspeditsiyadan oldin tayyorlab qo'yishimiz lozim.

Lekin hozirgi kungacha etnografning asosiy ish qurollari daftar va qalamdir. Dala yozuvlari qalin muqovali umumiy daftarlarga (iloji bo'lsa qalin, buklanmaydigan muqovali) qalam bilan tushuriladi. Axborotchidan olinadigan yozuvlarni, namgarchilik natijasida bo'yali ketishi mumkin bo'lgan, kimyoviy qalam, siyohlar bilan yozmagan ma'qul.

Har bir ekspeditsiya kiyim-kechak, uy-joylar, aholi xo'jaligi haqida albatta ish olib boradi. Shuning uchun unga zarur chizmachilik ashyolarini oldindan tayyorlab qo'yishimiz kerak. Jumladan, rasmni chizish uchun vatman qog'ozi, ish xo'jalik qurollarini, uy-joy rejalarini, kiyim-kechaklardan bichib olish uchun kalka, millimetrovka qog'ozlarini jamg'arishimiz, ularni buklanmaydigan jildda saqlashimiz zarur.

Chizish va nusxa ko'chirishda oddiy grafitli yumshoq qalamdan (TM dan M4 gacha) foydalaning. Uy rejalarini va shunga o'xshash chizmalarni yaratishda qattiq grafitli qalamdan foydalangan ma'qul.

Zarur rejalarini chizishda (18 yoki 24 talik) rangli qalamlar to'plamini ishlatib. Ekspeditsiya sharoitida qalamga qaraganda turli xil bo'yoqlar, akvarel, guashdan foydalanish qulay bo'lib, ular etnografik rasmlar chizishda taviriy san'atdagina nisbatan quyuqroq xolda ishlatiladi.

Yirik inshootlarni, uy-joylarni o'lchashda ko'pincha latta o'lchagich (metr)dan,

iloji bo'lmay qolganda, temir lentali (10-20m) o'lchash moslamasi (reletka) dan foydalaniladi. Kichik narsalarni, shuningdek, kiyimlardan bichim olinganda tikuvchilarni oddiy latta o'lchagichi qulayroq. Qishloqlar, uy-joylar rejasini chizishda chizg'ich, uchburchak guniya ishlatiladi.

Hozirgi kunda etnografik ekspeditsiyalarni kino va fotoapparatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ekspeditsiyadan avval bizkino foto tasmalarni, magnitafon uchun kassetalarni jamlab qo'yishimiz kerak. Etnografik ekspeditsiya uchun mablag' yetarli bo'lsa, mutaxassis suratchi, iloji boricha, biron rassomni jalb qilish, olinadigan ma'lumotlarning sifatini, qiymatini yanada oshiradi. Keng qo'llanilishi zarur bo'lgan texnik vositalardan biri – magnitafondir. Ularning axborotchilar suhbatining eng muhim joylarni, xalq og'zaki ijodi durdonalarini yozib olishda ishlatish juda zarur.

Ekspeditsiyaga ketishdan avval, mavsumga qarab eng zarur kiyimlarni olish kerakligi, xodimlarning kiyimlari odmi bo'lishi mahalliy aholi tomonidan koyishiga yoki ta'naga yo'l qo'ymaydigan darajada kiyinishini esdan chiqarmaslik zarur.

Etnografik ekspeditsiya paytida tadqiqotchilar aholi ishonchini qog'onish uchun mahalliy sheva, urf-odat va udumlarni hurmat qilishi zarur. Mahalliy aholiga nisbatan ozgina bo'lsada, hurmatsizlik (tashqimi yoki ichki, bundan qat'iy nazar) aholining noroziligiga olib keladi, bu esa o'z navbatida, olinadigan ma'lumotlarning aniq, puxta bo'lishiga zarar yetkazishi mumkin. Albatta, talabalarning madaniyatligi, tashqi ko'rinish va ma'naviy go'zalligi faqat ekspeditsiya paytida emas, tabiiy, hamishalik bo'lishi zarur.

Etnografik aholining diniy tuyg'ularini xurmat qilishi, diniy marosimlarni, rasm-rusmlarni tadqiq qilish borasida ularga xolisona baho berish kerak. Tadqiqotchi xalqning o'tmishdagi va hozirgi kundagi hayotini hech qanday "bo'yamasdan", bo'rttirmasdan, aniq, tabiiy holda tasvirlash zarur. Olingan axborotni mahalliy shevada qanday bo'lsa, o'sha holda yozish, tushinilmagan so'zlarni suhbat oxirida aniqlab, izoh berish etnografning asosiy vazifasidir.

3.3. Dala xujjatlarini to'ldirish hamda saqlashning ba'zi qoidalari

Etnografik ekspeditsiyalar davomida to'planadigan ma'lumotlar turli xil dala xujjatlarida mujasamlashtiriladi. Axborotchilar bilan savol-javob, rasmlar chizish, nusxa olish, suratlar, anketalar to'ldirish va x.k., bularning barchasi davr o'tishi bilan qiymati oshib boradigan tarixiy xujjatlardir.

Tarixchi uchun arxiv xujjatlari qanchalik nodir ashyo bo'lsa, etnograflar uchun dala ma'lumotlari shunchalik qimmatlidir. Etnografik ekspeditsiya paytida olib boriladigan ishlar, tadqiqotlar quyidagi xujjatlarda o'z aksini topadi: dala daftarlari, ekspeditsiya kundaligi, so'roq varaqalari, rasm chizish va chizmachilik ashyolari, fotosuratlar, kinolentalar.

Dala daftarlarning har bir beti raqamlanadi. Daftardan varaqlarni va ayniqsa yozilganlarini yirtib olish qat'iy taqiqlanadi. Daftarlarning birinchi va oxirgi betlarida varaqlarning umumiy soni ko'rsatilishi kerak. Ekspeditsiyaning har bir a'zosi faqat o'zining daftariga yozish mumkin, chunki o'zga kishining davtarga yozuvi uni keyingi to'g'irlanishda va ma'lumotlarni xajmlashda, ularni qayta ishlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Yozuv varaqaning faqat bir tomonidagina bo'lishi tavsiya qilinadi. Har bir

axborotchi bilan bo‘lgan suhbatni yangi betdan boshlashni unutmang. Suhbatni yoza boshlashdan avval varaqning tepasidan joy qoldirib, unga axborotchining manzilgohi, yoshi, kasbi, yozuvni kim, qachon olib borganligi va x.k.lar ko‘rsatiladi.

Etnografik ekspeditsiyalarida barqarorlik bo‘lishi uchun quyidagi namunadan foydalanishingiz mumkin.

Yozuv qilingan joy: viloyat, tuman, qishloq	Axborot kimdan olingan yoki suhbat mavzusi: ismi, otasining ismi, yoshi, kasbi, to‘plam (kolleksiyaga narsa olinsa, egasi haqida ma’lumotlar. Marosimlar, urf-odatlar tasvirlansa, ularning qatnashchilari haqida ma’lumotlar.)	Savol-javobni kim olib bordi. Yozuv qilingan kun, oy va yil. Tarjimon bo‘lsa, uning haqidagi ma’lumotlar.
--	--	---

Ba’zi hollarda yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga qo‘shimcha axborotchining millati (ko‘p millatli joylarda), qabila-urug‘i (etnografik guruhlar mavjud tumanlarda) ko‘rsatiladi.

Yozuvlarga biron bir aniqlik kiritish, qo‘shimcha kishilar, to‘ldirish faqat dala ekspeditsiyasi paytida va yolg‘iz daftarning egasi tomonidan qilinishi mumkin.

Ekspeditsiya kundaligi oddiy kundalik daftar kabi olib boriladi, uning varaqlari ham raqamlanib, har bir ma’ulmotdan avval yozuv vaqti, joyi ko‘rsatiladi. Kundalikdagi yozuvni ham aniq ravshan bo‘lishiga erishish lozim.

Etnografik ekspeditsiya kundaligi ham ilmiy xujjat hisoblanib, turli xil keraksiz gaplarni yozishdan, o‘zgartirishlar kiritishdan tadqiqotchi o‘zini saqlagani ma’qul.

Savol-javob varaqalari, ilmiy muassasa tomonidan yuborilsa mahalliy aholi tomonidan to‘ldiriladi. Anketalarni umumlashtirish tadqiq qilish ishxona sharoitida bo‘ladi, xolos. Dala ekspeditsiyasi paytida etnograf tomonidan to‘ldirilgan savol-javob varaqalari iloji boricha aniq va to‘liq bitilishiga erishish lozim. Har bir qishloq yoki mahallada to‘ldirilgan varaqalar aralashib ketmasligi uchun alohida saqlanishi yoki ilmiy muassasaga aloqa bo‘lishi orqali yuborilishi mumkin.

Chizma ma’lumotlar (qo‘lda chizilgan, nusxa olingan rasmlar, kashtalar, uy rejalari va x.k lar) albatta yozma bayonlar, qissalar bilan to‘ldirilishi lozim. Bunday yozuvlar alohida daftarga emas, mazkur chizma ashyoning biron burchagida bo‘lgani ma’qul. Grafik chizmalarning har biri o‘z raqami, ekspeditsiya shifriga ega bo‘lishi lozim.

Fotosuratlar (etnografik ekspeditsiya paytida ko‘pincha tasmaga rasmlar tushirib keyin chiqariladi. Dala ishlari paytida olingan suratlar tasmasi raqamlanishi kerak. Suratga tushirish paytida birinchi kadrdagi qog‘ozga chizilgan tasma raqamini, ekspeditsiya shifri olinsa, keyingi kadrlarni raqamlab qog‘ozga yozish osonlashadi)

Tasma №	Kadr №	Suratning syujeti	Suratga olingan joy, vaqti, sharoiti

Rasm olingan sharoit haqida yozish suratlarni yuzaga chiqarishda qo‘l keladi.

Agar ekspeditsiya a‘zolarida bir necha fotoapparat bo‘lsa, ularning har biriga ma‘lum shifr beriladi.

Ekspeditsiya sharoitida dala xujjatlarini saqlash.

Yozuv daftarlari va kundaliklar doim ishlatilganligi sababli, ular ekspeditsiya a‘zolarining plansheti yoki portfellarida saqlanadi. To‘ldirilgan daftarlarni aloqa bo‘limi orqali ekspeditsiyani uyushtirgan tashkilot manziliga yuborish tavsiya qilinadi. Har ehtimolga qarshi daftarning, kundalikning birinchi betida mazkur xodimning yashash joyi, familiyasi, ismi, yozib qo‘yilishi zarur.

Chizma rasmlar va boshqa grafik materiallar alohida qalin qog‘oz moslamalariga solib saqlanadi, ularni ham to‘plab kupaygan paytida aloqa bo‘limi orqali jo‘natib yuborish mumkin.

Foto va kino tasmalar yaxshilab o‘ralib, ekspeditsiya davomida ehtiyot qilib saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mipziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. –78b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, O‘zbekiston 2023.
4. Mipziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik koidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiniig 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
6. Pandian A. A Possible anthropology method for uneasy times. Duke University Press, Durham and London. 2019.
7. Han F.Vermeulen. Before Boas. The Genesis of Ethnography and Ethnology in the German Enlightenment. University of Nebraska Press, Lincoln & London. 2015.

8. Salimov T.O'. Dala etnografik ekspeditsiyalar o'tkazish usullari. –T., 1993.

9. Pavlova, A.N. Sotsialnaya antropologiya : uchebnoye posobiye / A.N. Pavlova; Povoljskiy gosudarstvenniy tekhnologicheskiy universitet. - Yoshkar-Ola: PGTU, 2016. - 96 s. - Bibliogr. v kn. - ISBN 978-5-8158-1639-8; [Elektronniy resurs]. - URL: <http://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=459498>

Axborot manbalari

- www.mirknig.com
- www.turklib.com
- www.etnology.com

4-MAVZU: BUGUNGI KUNDAGI ETNOLOGIYADA ETNOLOGIK TADQIQOTLARNI BUTUN BIR MAJMU

4.1.Etnografik dala ekspeditsiyasini o'tkazish usullari va amaliyoti.

Xalq madaniyatini, maishiy turmushini amalda o'rganish usullari turli bo'lib, ularni qisqacha bayon qilish ancha mushkul vazifadir. Etnografik ekspeditsiya muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillar quyidagilardan iborat: birinchidan, tadqiq qilinishi zarur bo'lgan aholining madaniyat darajasi, ikkinchidan, ekspeditsiya oldiga qo'yilgan vazifa va mavzularning aniqligi, uchinchidan, mazkur aholining o'rganilganlik darajasi va nihoyat ekspeditsiya qatnashchilarning tayyorgarligini jiddiy amalga oshirish. Ushbu omillar har bir ekspeditsiyaning amaliy uslublarini, ish tartibini, vazifalarini aniqlab beradi.

Etnograflar dala sharoitida doimo o'zgarib turuvchi, harakatdagi hayot bilan uchrashadilar, shu sababdan hamma narsani oldindan ko'ra bilib, turmushdagi bor voqea-hodisalar mos keladigan uslublarni ishlab chiqish va tavsiya qilish amalda mumkin emas. Shu sababli, zeharli tadqiqotchi har bir sharoitga mos keladigan usulni izlamasdan, mustaqil fikr yuritadigan, zarur paytda qandaydir yangi usul qo'llay oladigan bo'lishi zarur. Dala tadqiqodlariga ijodiy yondashishgina etnograflar oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etilishiga yordam beradi.

Quyida oldinroq etnografiyada dala ekspeditsiyalarini olib borish uchun ishlab chiqilgan umumiy metodik va asosiy amaliy usullar bilan tanishib chiqamiz. Tadqiqot usullari bo'limlari, etnografik dala eks-
Ekspeditsiyalarining asosiy tekshirish ob'ektlari xalq madaniyatining turli sohalarini qamrab oladi.

Fikrimizcha ularni asosiylari quyidagi muammolardan iborat: aholining etnik tarixi va etnoginezi, ho'jalik mashg'ulotlari va ish qurollari: uy-joylar, xo'jalik binolari hamda ularning jihozlanishi: kiyimlar, poyafzal va bezaklar:taomlar va uy-ro'zg'or buyumlari: ijtimoiy munosabatlar, oila va oilaviy-maishiy turmush: urf- odatlar, udumlar, o'yinlar, raqslar xalq og'zaki ijodi. Kundalik turmushda ularning hammasi alohidan bo'lmasdan, bir-birlari bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi. Shuning uchun etnograflar uy-joylarni tadqiq qilishsa, mazkur aholining ijtimoiy tuzumi, maishiy turmushi va oilaviy munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini ham o'rganadilar. Agar kiyimlar o'rganilsa, ularning urf-odat, udumlarga bog'liqligi, ular orqali esa yana ijtimoiy munosabatlarga chiqiladi. Shu sababli, biz tavsiya qilayotgan qo'llanmalar mazkur hodisa va voqelikni bayon qilishda ma'lum yengillik tug'dirish uchun shartli ravishdagi usullar, xolos.

Inson hayotining bosh omili - uning ishlab chiqarish faoliyatidir. Ishlab chiqarish faoliyati o'z navbatida insoniyat madaniyatining asosiy hal qiluvchi belgisi hisoblanadi.

Yer yuzining asosiy qismi uchun hozirgi davrni eng muhim hususiyati sanoatning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Xo'jalikni ibtidoiy, sodda shakllari (ko'rinishlari) uchraydigan yoki saqlanib qolgan chekka nihollar yildan-yilga kamayib bormoqda. Bugungi kunda etnografiya fanining faqat zamonaviy, taraqqiy qilgan, sanoatlashgan xo'jalikni o'rganish sohasi emas, balki uning yangi etnosotsiologiya, etnodemografiya, etnopsixologiya sohalarining ham faoliyati kengayib bormoqda. Insoniyat bosib o'tgan uzoq tarixiy taraqqiyot davrida, jumladan O'rta Osiyo halqlari tomonidan dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik xo'jalik sohalarini yaratilgan. Shu bilan birgalikda, keyingi

yillarda, hususan, sotsialistik jamoalashtirish davrida xo‘jalikning ko‘pgina an‘anaviy sohalari buzilganligi, unutilganligini guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu jarayonlarning katta zararlarini biz ekologiyada (atrof-muhit, tabiatda) paydo bo‘lgan muammolarda, paxtaning yagona hukmron (monokultura) o‘simlikka aylanishida, sho‘rhok va tashlandiq yerlarning ko‘payib ketganligida, ularning ta’sirida bog‘-rog‘larning, chorvachilikning katta zarar ko‘rganligida kuzatishimiz mumkin.

Albatta, bunday sharoitda halq tomonidan asirlar davomida yaratilgan ma’qul, har qanday iqlim sharoitga, tabiatga mos va zarar keltirmaydigan xo‘jalikni o‘rganish, ba’zi hollarda uni tiklash va nihoyat uni targ‘ib qilish, keng yoyish etnograflarning asosiy vazifalardan biridir. Keyingi yillarda Nurota, Forish, Zomin, Boysun, Dehqonobod tumanlarda olib borgan etnografik tadqiqqlarimiz, xo‘jalik mashg‘ulotlarini ilmiy tadqiq qilish insoniyat tarixini, jumladan, xalqimiz tarixini chuqur o‘rganishda, tarixiy taraqqiyot qonunlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo‘jalik - murakkab, lekin uzliksiz jarayondir va uni yagona birlik sifatida o‘rganish zarur. Ma’lum viloyat, tuman iqtisodining o‘ziga xosligini tushunish uchun, eng avvalo ushbu joy aholisining hayotiy asosiy manbasi qaysi xo‘jalik turi ekanligini aniqlashimiz kerak. Huddi shu asosiy xo‘jalik mashg‘uloti, aholining hayot darajasini va madaniyatini belgilaydi. Xo‘jalikni har bir joyining tabiat muhiti bilan bog‘liq holda o‘rganmoq lozim. Shu bilan birga yer yuzida sof dehqonchilik, chorvachilik yoki ovchilik bilan shug‘ullanuvchi xalq yo‘q. Asosiy mashg‘ulot xo‘jalik faoliyati bilan birgalikda hamisha halqning o‘ziga, uni to‘ldiruvchi sohasi bo‘ladi. Misol uchun, dehqonchilik bilan mashg‘ul aholi uy chorvachiligi, ovchilik bilan, chorvador o‘z navbatida lalmi g‘alchilik, polizchilik yoki bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishi mumkin. Etnograflarning vazifasi xuddi shu yordamchi xo‘jalik mashg‘ulotini ham nazardan qoldirmaslikdir. Mazkur aholida yangi xo‘jalik soxalarining paydo bo‘lishi va uning rivojlanish masalalarini ham tadqiq qilishingiz, olingan ma’lumotlarning qiymatini yanada oshiradi. Buning uchun manbalardan: arxiv, statistik ma’lumotlar, arxeologik tadqiqotlar, materiallardan foydalanish kerak.

Xalq xo‘jaligini o‘rganishga avval uning geologik sharoitiga, iqlimi va tuprog‘iga oid ma’lumotlarni ko‘rib chiqish, ya’ni mazkur tumanlarga oid o‘simlik va hayvonot dunyosini, temir yoki avtomobil yo‘llarining o‘tgan o‘tmaganligini, shahardan uzoq-yaqinligini haqida ma’lumotlar to‘plashingiz zarur.

Xo‘jalik turlari, mashg‘ulotlar, ish qurollari hamda xo‘jalik mahsulotlari etnografik tadqiqot ob’ekti sifatida ham statsionar, ham qisqa muddatli ekspeditsiya orqali o‘rganilishi mumkin. Agar ma’lum aholi guruhining xo‘jalik faoliyati va hayotini butun yil davomida o‘rganish zaruriyati bo‘lsa, statsionar tadqiq qilingan ma’qul, o‘zga hollarda qisqa muddatli ekspeditsiya uyushtirish mumkin.

Xo‘jalik sohasiga oid ma’lumotlar: aholi bilan savol-javob, xo‘jalik ishlarini shaxsan kuzatish, ashyolarni, ishqurollarini o‘rganish, rasmlarni chizish, suratga olish va h.k.lar asosiy ish uslubidir

Ish qurollari etnografik ekspeditsiya paytida katta e’tibor bilan o‘rganilishi lozim. Xo‘jalikning qaysi sohasini o‘rganishdan qat’iy nazar, unda ishlatiladigan asosiy va yordamchi ish qurollarini tadqiq qilish va tasvirlash zarur. Ish qurollari chizib olinishi ishlatish jarayonida esa uning yoniga katta - kichikligini aniqlash uchun chizg‘ich yoki qalam qo‘yib hajmli suratga olinishni ta’minlash. Ish qurollini mehnat jarayonini turli

davrlarida, turli tomonlarida suratga olganingiz ma'qul.

Mehnat qurollarini ko'lamli (masshtabli) chizish ancha qiyin bo'lsada, yaxshi natija beradi. Buning uchun ish quroli o'lchab chiqiladi va uning chizmasi tayyorlanadi. Chizmada uning uzunligi, eni, bo'yi, har bir asosiy qismning o'lchovi beriladi.

Etnografik ekspeditsiya paytida xo'jalik faoliyatining turli sohalarida ishlatiladigan ish qurollari, dastgohlarini, imkoniyati bo'lsa, chiqarilayotgan mahsulot namunalarini to'plamga olishga harakat qiling.

Hunarmandchilik dastgohlarini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqarish usullari va texnologiyasini o'rganing. Buning uchun mazkur jarayonni boshlanishidan, ashyo tayyorlanishidan oxirigacha tayyor mahsulot chiqqunga qadar kuzatishingiz va yozib, chizib olishingiz mumkin.

Misol uchun O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarida keng tarqalgan gilam to'qilish tadqiq qilindi deylik. Birinchi navbatda junning tayyorlanishi, sifati, xajmi, unga bo'lgan talablar, ipning yigirilgan bo'lishi, iplarni to'qish dastgohiga qo'yilishi va h.k. jarayonlar ketma-ket navbat bilan o'rganiladi. Ishingizda ayniqsa mahalliy shevadagi so'zlarga, atamalarga (terminlarga) e'tibor berib, aniq yozish lozim. Kelajakda tadqiq qilinishi zarur bo'lgan xom-ashyo yoki tayyor mahsulot elaklari etnografiya muzeyi uchun qimmat baho eksponat bo'lib xizmat qiladi.

Hududimiz xalqlari qadimiy tarixga, madaniyatga, o'ziga xos xo'jalik sohalariga ega, lekin shuni e'tirof etish kerakki, oxirgi yuz yil davomida xalqlarimizning ko'plab o'ziga xos, boshqa joylarda kam uchraydigan hunarmandchilik turlari yo'qolib ketdi, ba'zilari yo'qolish arafasida turibdi. Shuning uchun etnograflar faqat mavjud xo'jalik sohalarini o'rganib qolmasdan, hozirgi kunda uchramaydigan, lekin qadimdan mazkur joylarda bo'lgan hunarmandchilik turlarini so'rab, surishtirib daftarga tushirishlari lozim.

Xo'jalik asoslari o'rganish borasida xalq kalendari, ayrim an'ana va irimlarga afsona va rivoyatlarga e'tibor berish zarur. Misol: asosiy mashg'ulotlari dehqonchilik yoki chorvachilik bo'lgan etnik guruhlar tabiat fasllari va xo'jalik faoliyatlariga qarab o'z yumushlarini rejalashtiradi. Oddiy misol, O'rta Osiyoning qishloq xo'jalik tumanlarda hatto to'y marosimlari dala ishlari kamaygan (avgust) yoki hosil yig'ib olingandan keyin (noyabr, dekabr oylarida) o'tkaziladi.

Faslga qarab irimlarga rioya qilinadi. Bahorning sernam kelishi uchun dehqonlar (martda) "Darveshona" o'tkazadilar, qurbonliklar qilinadi. Chorvador yomg'ir uchun o'z uyasidan chiqqan toshbaqalarni ag'darib ketishadi. Jumladan, Nurota tumanining Dehbaland qishloq aholisi dehqonchilikni boshlashdan oldin "Kushoyimi - kor" udumini o'tkazishgan. Yomg'ir yog'masa, "yalqon" qilingan. Qishloqda yelkaga hurjun tashlab, "Yalqon-yalqon" deb, xayr-ehson yig'ilgan. To'plangan oziqlar birgalikda iste'mol qilingan. Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq, shunga o'xshash udumlarni ko'plab uchratasiz.

Iqtisod va xo'jalik inson hayotining harakatchan, doimo o'zgarib turuvchi muhit sohalaridan hisoblanadi. Ko'pincha siz o'rganayotgan xo'jalik sohasi mahalliy aholi uchun yaqin o'tmishda tashkil topgan bo'lishi mumkin. Shu sababdan yordamchi xo'jalik turi (O'rta Osiyo sharoitida ko'p uchraydigan soha chorvachilikdan) dehqonchilikka yaqin davrida o'tgan xalqlar uzoq payt o'z an'analari saqlab qoldi.

Jumladan, Mirzacho'l aholisini olaylik. Bu yerdagi yangi qo'riq nohiyalariga 40-50 yil oldin yer-suv tanqis bo'lsada, xo'jalikda o'zlarining an'anaviy chorvachilik

sohalarini ham saqlab kelmoqdalar.

Mamlakatimizda hozirgi kundagi siyosat talabiga binoan xalqimizning serunum kam harajat, an'anaviy xo'jaliklar sohasidagi tajribasidan amalda foydalanish mumkin. Xo'jalik ishlab chiqarishini o'rganish borasida har bir etnosning o'tmishdagi mehnatni tashkil qilish usularidan ishni avlod orasida, jinslar orasida qanday taqsimlanganligini tadqiq qilishimiz lozim.

O'rta Osiyo halqlaring qadim zamonlardan o'zaro yordam, hashar, jamoatchilik hamkorlikda bajariladigan boshqa kishilar hisoblashishi kabi yaxshi udumlarni o'rganishimiz, uning qaysi tomonlarini hozirgi jamiyatimizda qo'llash mumkinligini aniqlash etnograflar uchun muhimdir. Xo'jalikni o'rganish borasida u bilan bog'liq urf- odat, udumlarini o'rganish biz uchun mehnatni tashkil qilishning shakllarini aniqlashda yordam beradi.

Etnograf zamonaviy xo'jalikni tadqiq qilishda jamiyatimizda sotsializm qurish davrida bo'lgan ilg'or, ijobiy o'zgarishlar bilan birgalikda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni, aholi moddiy farovonligining oshish darajasini, turli xil kasb egalarining, sotsial guruh vakillarining ishlash va yashash sharoitlarining va bu sohadagi o'zgarishlarni ko'rsata bilish lozim.

4.2. Turar-joylarni tadqiq qilish.

Turar joylar yashash va xo'jalik binolaridan iborat bo'lib, ular aholi punktlariga, shahar va qishloqlarga birlashadilar.

Turar joylarni o'rganish ijtimoiy tuzum, oilaviy munasabatlar, xo'jalik va maishiy turmushning boshqa sohaları haqida ko'plab o'ziga xos ma'lumotlar beradi. Moddiy madaniyat belgisi sifatida turar-joy binolari o'zining kam o'zgaruvchanligi (konservativligi) bilan ajralib turadi, buning sababi hammaga ma'lum, uy-joyni odamlar har yili qurmaydilar, maboda yangi uy qurilganda ham avvalgi qurilish tajribasi, an'analari va asosiy qonun- qoidalariga rioya qilgan holda nisbatan sekin quriladi. Natijada ko'plab shahar va qishloqlar o'zida o'tmish davr ruhini uzoq payt saqlab qoladi, bu esa biz - etnograflarning qimmatli tarixiy manbalarimizga aylanadi.

Uylarning ko'rinishi (shakli) va rejası ko'plab omillarga bog'liq. Geografik muhit iqlim-sharoit suv yo'llarining bor-yo'qligi ularga birlamchi tasir qilsa, ikinchidan, sotsial - iqtisodi daraja, dushman xavfining bo'lishi ko'plab xalqlar inson yashash unchalik qulay bo'lmagan joylarda ham uy- joy kurishga, yashashga majbur qilgan.

Mudofaa zaruriyati faqat shahar yoki qishloqning emas, uy-joylarning rejasiga ham ta'sir qilgan. Natijada dushman xavfi ostida yashagan aholining uy- joylari ko'pincha aylana doirasimon shaklda qurilgan.

Sotsial – iqtisodiy omillarning o'zgarishi, ayniqsa savdo- aloqalarining kuchayishiga, uning ta'siri ostida ko'plab yangi yo'llarning qurilishiga sabab bo'ldi. Kapitalizm jamiyatida mamlakatimizda esa o'sishi ro'y berdi .

Bu esa o'z navbatida uy- joylarni rejalashtirishga, ularni yo'l yoqalariga qurila boshlashiga olib keldi.

O'rta Osiyo sharoitida qishloqlar va ulardagi uylarning rejaları, jamoa xo'jaligi tuzumi paytida, ma'lum jihatdan rus, tatar xalqlarining, me'morchilik san'ati, qurilish uslublarining ta'sirida keskin o'zgardi. Qishloq xo'jaligida paxta hukmronligining tiklanishi, qishloq aholisiga shaxsiy xo'jalik uchun ajratiladigan yerlarning keskin

kamayishi, bu esa o'z navbatida hovlilarda xo'jalik binolarining, uy-hayvonlarining keskin kamayishiga olib keldi. Tadqiqotlar paytida qishloqlarda mavjud ijobiy jarayonlarga alohida e'tibor bering. Chunki elektr nuri, gaz va vodoprovod suvining o'tkazilishi aholining madaniyatiga, farovonligiga ta'sir etmay qolmaydi.

Har qanday shahar yoki qishloqni o'rganishni mazkur joyning etnik tarixini o'rganishda boshlashimiz zarur. Tadqiqot o'tkazilishimiz kerak bo'lgan qishloqlarning yoshini aniqlash uchun arxiv ma'lumotlaridan, o'sha joydagi me'morchilik yodgorliklaridan, afsona va rivoyatlardan foydalanishimiz mumkin. Mazkur joyda arxeologik qazishmalar o'tkazilgan bo'lsa, bu ma'lumotlar biz uchun yanada qo'l keladi.

Qishloq rejasini chizishda, topografik ko'p masshtabli xaritadan yoki fotoapparat bilan balandroq joydan turib olingan suratda foydalanishimiz mumkin. Shahar yoki qishloqdagi uy-joylarni o'rganish, ularning rejalari chizib olish bilan yakunlanmaydi. Qishloq aholisining joylashish qonuniyatlari, ba'zi qism nomlari va ularning mazmunini aniqlang. Ko'pincha alohida qismlar nomi aholining sinfi, sotsial tajribasi urug' - qabilalari haqida ma'lumotlar beradi, misol uchun, kosiblar yoki juvozchilar mahallasi va h.k. Uy-joylarni o'rganishda qishloq aholisining joylashuviga, unga qon- qarindoshchilik belgilarining ta'siriga ham e'tibor berishingiz kerak. Bu borada aholi joyidagi har bir qism (etnotoponomiyani) ning kelib chiqishi, ularning mazkur etnik guruh tarixi bilan bog'liq darajasini aniqlashimiz zarur.

Zamonaviy shahar va posyolkalar kurilishida etnograflar, milliy va xalq an'anasi hamda udumlarini hisobga olgan holda, arxitektura, loyiha tashkilotlariga qimmatli maslahatlar berish mumkin.

Uy-joylar, xo'jalik binolari va uy jihozlarini o'rganish.

Uy-joylar u yoki bu ko'rinishda butun dunyo xalqlariga ma'lum. Turar joy binolarining asosiy vazifasi, albatta, Mazkur geografik iqlim, mintaqada inson yashashi uchun zarur sharoitni yaratib berishdi. Uy-joylar insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'liq, ayniqsa qishloqlarda, ya'ni uyni xo'jalik binolari bilan bir butun (kompleks) qurilgan joyda bu yaqqol seziladi. Uylarning o'ziga xosligini ularni bezatishda ham kuzatish mumkin. Ko'pgina tumanlarda aholi o'z uylarini o'ymakorlik (ganchda, yog'ochda), gul bosish, chizish, bo'yash orqali bezatiladi. Etnograf tadqiqot paytida uy qurilishi texnikasiga ham e'tibor qilish kerak, sababi, inson ehtiyojlari, madaniyat darajasi, imkoniyatlari unda mujassamlashadi.

Uy joy qurilishining taraqqiyoti geografik yoki xo'jalik omillariga bog'liq bo'lmagan o'ziga xosliklari, unda yashayotgan aholi guruhlarining etnik jarayonlarini tadqiq qilishga yordam beradi.

Turar joylar, hovlilarni o'rganishda marshrutli ekspeditsiya uyushtirish ko'proq samara beradi. Sababi o'rganish kerak bo'lgan narsa "ko'rinadigan joyda" va bir yerda uzoq bo'lishga zaruriyat yo'q. Ikkilamchi marshrutli ekspeditsiya katta hajmdagi uy-joylarni o'rganish imkoniyatini beradi. Turar joylarni tadqiq qilishni uy va xo'jalik binolari yig'indisi (kompleksi) mavjud hovlidan boshlamoq zarur. O'rta Osiyo o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining hammasida bunday turar joy yig'indilari

mavjud.

Hovli nihoyat murakkab etnografik voqelik bo'lib, uning haqida to'liq ma'lumotlar yig'ish uchun mutaxassis bir qancha dala ishlari usullarini qo'llaydilar. Bularga axborotchi bilan savol-javob, uy-joylarni ta'riflamoq, foto suratlarga olish, binolarni o'lchab, ularning rejalarini chizish, me'morchilik bezaklaridan nusxa olish va h.k. lar kiradi. Oxirgi yillarda savol-javob varaqalari (anketalar) to'ldirish orqali tadqiqotlar o'tkazish keng tus olmoqda.

Etnograflar eng avvalo hovlilarni o'rganishda, ularga qanday joy tanlanganligini, qaysi omilga - quyoshgami, yo'l yoki suvga nisbatan uy quradigan joy belgilanganligini, tabiiy iqlim sharoit, geografik muhitni ta'siri qanday darajada ekanligini aniqlash zarur.

Shundan keyin hovli rejasini o'rganishga o'tasiz va bu borada taxminiy tasvirlovchi chizma yoki aniq chizma tuzishingiz mumkin. Hovlidagi binolarni, ular orasidagi masofani 10-15 metrli o'lchov moslamasidan foydalanib, qog'ozga chizmasini tushirsangiz, aniq rejali umumiy chizma yaratiladi. Qadam yoki qarichdan foydalansangiz. Taxminiy tasvirlovchi chizma paydo bo'ladi.

Qishloqlardagi aholi hovlilarini o'rganish bilan birga, siz unda yashovchi kishilarning ijtimoiy ahvoli, ularning ho'jalik mashg'ulotlari bilan qiziqishingiz zarur. Hovlini to'liq tasvirlash uchun yana undagi maydondan foydalanish darajasi, qanday daraxtlar borligi ham ko'rsatilishi kerak.

Uy- joylarni o'rganishda mukammalroq uslublardan foydalanish bizga yahshi ilmiy ma'lumot beradi. Buning uchun hovlidagi har bir uyni va rejasini chizmaga tushirishimiz kerak. Eshik derazalar va boshqa qismlar alohida o'lchanib, umumiy chizmaga kiritiladi. Shu reja chizmaning o'zida uy egalari haqida ma'lumot, uyning qurilish vaqti keyinchalik kiritilgan o'zgarishlar, ba'zi qismlarining nomlari va boshqa ma'lumotlar yoziladi, ko'pincha ushbu chizmaning orqa tomonida ushbu uy-joyga oid (mebel', oilaning tarkibiy x.i. lar) ekspeditsiya shifri , chizmaning raqami xam yozib qo'yiladi.

Fotapparat bilan uylarni suratga olganda quyosh nuridan foydalanib, nur tepadanburchak bo'yicha tushgan paytda olganingiz ma'qul. Apparatni binoning ro'parasiga emas, burchagidan ikkita devor ko'rinadigan qilib joylashtirish va suratga olish lozim.

Etnograf doimo yonida saqlashi kerak bo'lgan narsa, yashaydigan uylarga nisbatan xo'jalik binolari, vaqtinchalik qurib qo'yilgan bostirmalarda qadimiy an'anaviy qurilish usullari , belgilardir. Tog'li tumanlar- Qo'shrabod, Forishda shu kungacha yerto'la, to'la kabi qadimiy binolar saqlanib qolgan.

Qurilish ashyolarini tanlash, qurilish uslublarining o'zi ham ko'pincha geografik muhitga bog'liq. Zamonaviy qurilish sanoati bu ta'sirini birmuncha yo'qotsada, mahalliy ashyolardan foydalanish keng ko'lamda davom etayapti. Uylarning qurilishida ishlatiladigan qurilish ashyolari yog'och, tom, guvala uslublari, sinchli , pahsali va h. k . larga qarab , binolar mahalliy, o'ziga xos shaklda bo'ladi. Jumladan , tog'lik tumanlarda tosh, o'rmon doirasida yog'och, daryo vohalarida yoki vodiylarda g'isht, guvaladan uy qurishda ko'proq foydalaniladi.

Kafedramiz tomonidan 1990 yil bahorda uyushtirilgan etnografik ekspeditsiya davrida talabalarimizdan bir necha kishi uy-joy muammosi bilan shug'ullangan. Ushbu

muommoga oid misollar : “G‘azg‘on” davlat xo‘jaligining “Eski” qishlog‘ida olingan ma‘lumotlarga binoan bu yerda 1930-1940 yillarda aholining ko‘pchiligi yerto‘lalarda yashagan. Yerto‘la qurish uchun odam bo‘yi ko‘rinmaydigan qilib qazib, ustini shox-shabba bilan yopishgan. Uning eni 3 metr, uzunligi 3,5 - 4 metrgacha bo‘lgan bo‘lib, devorlari silliq qilib tarashlangan. Ba’zida devorda tokcha qilib qo‘yilgan. Yerto‘laning o‘rtasida olov yoqib ovqat pishirilgan, tutun chiqib ketishi uchun o‘choqning tepasidan shipdan teshik yasagan va tutun chiqib ketgandan keyin yopib qo‘yilgan. Olovdan qolgan cho‘g‘ ustiga sandal solib, sandal atrofida o‘tirib ovqatlanishgan. Yerto‘laga kirish uchun zinapoya orqali eshikka tushilgan. Eshik ko‘pincha janubga yoki quyosh chiqadigan tarafga qo‘ilgan bo‘lib, og‘ziga kigiz yoki olacha yopib qo‘yilgan.

Yerto‘lani yoritish uchun maxsus chiroq yasalgan. Chiroqni yoqishda oq moy va paxtadan foydalanishgan. Oq moyni biror idishga solib, paxtani eshib, shu idish ichiga solib qo‘yilgan. Zarur paytda paxtaning idishdan tashqaridagi qismi, ya’ni pilik yoqilib, chiroq qilingan.

Ekspeditsiya davomida biz Nurota tumani, Nurota davlat xo‘jaligidagi katta Ej qishlog‘ida bo‘lib, uy-joylar haqida ma‘lumotlar to‘pladik. Katta Ej qishlog‘i tog‘ bag‘rida joylashgan bo‘lib, bu yerda qadim paytlarda aholi yashab kelmoqda. Axborotchilarning bergan ma‘lumotlari bo‘yicha uylar avvaliga bir xonali bo‘lib, toshdan qurilgan. Xonaning qibla tarafida Mehrobi bo‘lgan, devorlarda tokchalar (tojikcha rapchalar) bo‘lib, unda turli xil idishlar saqlangan. Uylar 5, 7, 9 bolorli qilib qurilgan. Bunday uylarning tomi somonli suvoq qilingan. Uyning orqa tomoni ko‘chaga qaragan. Katta Ejda bir xonali uylar 1940-1950 yillargacha saqlangan.

Biz yuqorida faqat Nurota nohiyasining ikkita qishlog‘idagi an’anaviy uylarni qisqacha bayon qildik, xolos. Demak, etnograflar uchun O‘zbekistonning turli viloyatlarida ushbu muammoni o‘rganish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Uy-joylar tarixiy-ma’daniy an’analar bilan uzviy bog‘liq ekanligini e’tiborga olishingiz zarur, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan vohadan cho‘lga ko‘chib kelgan kishi g‘uvaladan qurib bo‘lsa ham uyda yashaydi.

Etnograflar uymi, o‘tovmi, bundan qat’iy nazar ularga ishlatiladigan yog‘och, namat, kigiz, sholcha va x.k. larga e’tibor berishi, ularni suratga olishi yoki kashtalarini chizib olishi kerak.

Qurilish ashyolari bilan tanishish borasida tadqiqotchi ularning qaerdan olinishini va qanday tayyorlanishini, bu borada ishlatiladigan asbob-uskunalarini tasvirlashi ham lozim. Qadim zamonlardan yaqin-yaqinlargacha odamlar yashagan hamda hozirgi kungacha saqlanib qolgan to‘la va yorto‘lalarni izlash, topib o‘rganish lozim. Uylarni o‘rganishda vatasvirlashda poydevorlardan tomigacha ,eshik oynasidan jihozlarigacha hamma-hammasi navbat bilan aks ettiriladi,suratga olinadi yoki chiziladi.

Xar bir xalqning uy jixozlari uzoq davr milliy an’analar bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun uyning ichki ko‘rinishi, undagi buyumlarning turlari, joylanishi, tur-poyondozi, ko‘rpa-to‘shak va idishlarning o‘rni, eski va yangi uy jihozlari, buyumlar (stol, stul, sandal, sandiq va boshqalar), gilam, rasm-bezaklarni o‘rganish muxim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi aholi joylari tarixi bilan ham qiziqsa, yuqorida aytilgan dasturlardan tashqari, uy-joy bilan bog‘liq urf-odatlariga, turli irim-udumlarga ham e’tibor qilish kerak.

Yozish borasida atamalarni mazkur aholi shevasida bo'lishini, ularga tushintirish xati yoki izoh berishni ta'minlash zarur .

Uy-joy va xo'jalik binolarida bo'layotgan zamonaviy etnik jarayonlarining ta'sirini o'rganishda yoppasiga savol-javob varaqlari to'lg'azish bilan tadqiqotlar o'tkazish ham etnograflarning vazifasidir. Yuqorida ko'rsatilgan uslublarni qo'shib olib borilishi ilmiy ma'lumotlar yig'ishda yaxshi natija beradi .

Kiyim-kechak, poyafzal va taqinchoqlar

Kiyim-kechak ham inson uchun eng avvalo uylar singari, tashqi tabiiy muxitdan saqlanish uchun zarur. Shuning uchun kiyimlarning paydo bo'lishini iptidoiy-jamoa tuzumi davrida oid desak hato qilmaymiz. Taqinchoq va bezaklar ham o'sha qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Yer yuzidagi deyarli hamma aholi kiyim-kechak va bezaklar bilan tanish.

Kiyim turlari tabiiy geografik muxitga bog'liq bo'lib, ushbu omilga qarab, uning ko'rinishi ham, gazmoli ham belgilanadi. Gazmol turi faqatgina tabiiy iqlim sharoitiga emas, aholining xo'jalik faoliyatiga ham bog'liqdir. Bu ayniqsa ilgari, kiyim va poyafzallar sanoat tomonidan emas, natural xo'jalikda tayyorlangan paytda yaqqol kuzatish mumkin edi. Dehqonchilik bilan mashg'ul aholi ip, shoyi gazlamalardan, chorvadorlarda esa jun va teridan kiyim-kechak tikiladi.

Kiyim va bezaklar o'zlarining asosiy vazifalaridan tashqari, insonning jamiyatdagi tutgan o'rnini ham belgilaydi. Asrlar osha kiyim vabezaklarning ham turlari ko'payib inson xayotidagi ahamiyati oshib borgan. Hozirgi kunda ham insoniyat madaniyati, uning ilg'or yoki qoloqligi, ma'lum darajada kiyimlar hamda bezaklar orqali muayyan sotsial ahamiyat kasb qiladi. Etnograflar uchun kiyim va bezaklarning xuddi shu, ya'ni ularning ham o'tmishda, ham hozirgi kunda xalqlarning madaniy an'analari va urf-odatlariga mosligidir.

Geografik sharoit aholi iste'mol qiladigan hayvonlar va o'simliklar sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Jumladan, sovuk iqlimlik mintaqalarda inson tanasi yog'lik taomlarni ko'proq talab qiladi. O'rta Osiyoda ko'k choyni keng tarqalganligini faqat an'anadan emas, ma'lum jihatdan havoning issiqligi bilan ham bog'liq ekanligiga xech kim shubha qilmaydi.

Taomlar tarkibiga katta ta'sir qiluvchi yana bir omil - mahalliy aholining xo'jalik turi, uning yetishtiradigan mahsulotidir. Tabiiy dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi vodiylar aholilarining taomlari ko'chmanchi chorvachilik bilan mashg'ul aholi taomlaridan keskin farq qiladi.

Muhimi shundaki, taomlar ham uy-ro'zg'or buyumlari singari tarixiy-madaniy an'analari, odatlar ta'siriga beriluvchan sohadir. An'analari ta'siri shunchalik kuchliki, xalqning yashash sharoiti keskin o'zgarsada, mahalliy taomlar o'ziga hosligi saqlanib qoladi. Ko'plab taomlarning an'anaviy barqarorligi ularda ma'lum xalq, yoki guruhlariga oid etnik xususiyatlar mavjud ekanligidan darak beradi.

Taomlar etnik xoslikni uzoq saqlovchi omillardandir. U yoki bu aholi guruhlari taomlariga qarab, biz ularning an'anaviy xo'jaligini, tog'likmi yoki vodiylilikmi ekanligini aniqlashimiz mumkin.

Xozirgi kunda taomlarning milliy va mahalliy xususiyatlari yo'qolib bormoqda. Bunga ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlarining hom ashyo sifatida sanoat asosida tayyorlanishi va savdo muassasalari orqali sotilishi katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Taomlarni o'rganishda faqat ularning turlarini, tarkibini, aniqlash bilan chegaralanib qolmasdan, ular bilan bog'lik omillarni, urf-odat, udumlarni, sharoitlarni ham chuqur tadqiq qilishi kerak. Jumladan, ovqatlanish tarkibi (kundalik va mavsumiy), xo'jalik faoliyatining unga ta'sirini ham albatta e'tiborga olish zarur. Inson parhezi, sog'lig'i ba'zi urf-odatlar va marosimlar bilan borliq. Taomlarga, sabzavot va boshqa oziqlarga nisbatan taqiqlash sabablarini, ularning muddati, qachon paydo bo'lganligini aniqlash bizga qimmatli ma'lumotlar beradi.

Inson faoliyatining qadim davrlarida paydo bo'lgan ba'zi hayvonlar, o'simlik va sabzavotlarning ayrim turlarini iste'mol qilinmaslik (tabu), taqiqlar ko'pincha diniy tasavvurlar bilan chatishib ketgan. Lekin insonning ma'lum taomlarni vaqtinchalik iste'mol kilmasligi faqat din bilan bog'liq emas. Etnograflar bu xodisaning haqiqiy sabablarini xalqlarning qadimiy mehnat faoliyatlaridan izlanishlari kerak. Misol uchun, musulmonlar cho'chqa go'shti, hindlar mol go'shti iste'mol qilmaydilar. Ko'pgina Ovro'pa mamlakatlarida toshbaqa go'shti tansiq taom sifatida, xitoyliklar ilon go'shti, butun Janubiy-Sharqiy Osiyo hududida it go'shti iste'mol qilinadi. Bunday "tabu"larning paydo bo'lishi, dunyo dinlari vujudga kelmasdan oldinroq bo'lgan va unga faqat dinni sabab qilib ko'rsatish hato bo'ladi. Siz o'rganayotgan joyingizda ma'lum taomlarga taqiqlarni va ularning atrof-tevarakka qanchalik tarqalganligini aniqlasangiz, ushbu aholi guruhining etnik tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlarni tiklash mumkin bo'ladi.

Tadqiqotchining shaxsiy kuzatishlari, axborotchilar bilan savol-javoblar taomlar haqida ma'lumot to'plashning asosiy manbaidir. Shuningdek, chizma, rasmlar, Fotosuratlar va boshqa metodik usullarning qo'llanilishi bu muammoni chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi.

Taomlarni ta'riflashda mahalliy ovqatlarning masalliqlarini, uni tayyorlash jarayonini iloji boricha to'liq yozib oling. Taomlarni tayyorlash ko'pincha murakkab jarayon va unga rioya qilish ovqatning sifatiga ta'sir qiladi. Jumladan, O'zbekistonda palov milliy taom, lekin uni tayyorlashda o'nlab usullar mavjud. Siz qaysi viloyatga borsangiz, o'sha joyga xos palov pishiriladi va aholi o'z taomlarini eng yaxshi, eng shirin osh deb tavsiya qiladilar. Taomlar bilan bog'liq jarayonni ta'riflashda masalliq, qanday tayyorlanishiga, qanday idishlarda pishirilishiga e'tibor qilishingiz zarur.

Keyingi yillarda respublikamizda xalqimizning an'anaviy bayramlari tiklanmoqda. Jumladan, "Navro'z"ning nishonlanishi unutilib ketilayotgan ba'zi xalq taomlari sumalak, xalim, ko'k somsa va x.k.larning keng miqyosda yoyilishiga olib keldi.

Etnografik ekspeditsiyalar paytida ushbu sohada ham ko'plab ma'lumot to'plash mumkinligiga amin bo'ldik.

Faqat Nurota tumansining Dehband qishlog'ida xozirgi kunda uchramaydigan, mazkur joygagina hos qo'ng'irboshdan qotirma, chalma, yarma, irmi-sulton, kichi, juqma, bodom oshi kabi taomlarni yozib oldik. Taomlarni ta'riflashda mahalliy shevadagi har bir so'zni aniqlab, bayon qilishga harakat qiling.

Huddi shunday ichimlikliklar haqida ham ma'lumotlar to'planadi.

Tadqiqot paytida bolalar taomlarini ham o'rganish, ularning qanday yovvoyi o't, mevalarni tanovul qilishlarini yozib oling. Shu tarzda dorivor o'simliklar xaqida ham ma'lumot to'planadi.

Bunday o'simliklardan gerbariy to'plash, keyinchalik ularni mutaxassislar yordamida chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi.

Taomlarga, shifobaxsh o'simliklarga oid afsona va rivoyatlar, urf-odat hamda irim va udumlarni o'rganish ham ko'plab qimmatli ma'lumotlar beradi. Ko'pincha muayyan marosimlar, urf-odatlar bilan bog'liq taomlar o'zlarining qadimiyligi, an'anaviyligi bilan ajralib turadi. Masalan, to'ylarda, bayramlarda, ma'rakalarda pishiriladigan taomlar bir-biridan farq qiladi. Bu taomlarni biz kundalik iste'mol qilinadigan taomlar ichida uchratmasligimiz mumkin. Xalqimizning qadimiy an'alaridan mehmondo'stlik, mehmon kutish masalalariga ham e'tibor berish kerak.

Taomlarni o'rganish borasida etnografiyaning zamonaviy usullaridan biri etnosotsiologiyadan foydalanishimiz ham mumkin. Savol-javob varaqalarida qaysi an'anaviy taomlarning saqlanib qolganligi, ularning haftada necha martagacha tayyorlanishi, marosim taomlarining tarkibi, innovatsiyalar natijasida qanday yangi taomlarga va sabzavotlar hisobiga milliy taomlar boyiganligini aniqlashimiz mumkin. Ilgari xalqimizda bo'lmagan meva va sabzavotlarni qiyom qilish, tuzlash kabi yangi sohalarni ham o'rganishingiz lozim.

SOTSIAL MUNOSABATLAR, IJTIMOIIY VA OILAVIY-MAISHIY TURMUSH

Zamonaviy etnoslar va etnik guruhlar sotsial-ijtimoiy munosabatlarning ko'p qirrali tomonlarini falsafa, xuquqshunoslik, etika, estetika, sotsiologiya, tarix, etnografiya va boshqa ijtimoiy fanlar tadqiq qiladi.

Ular orasida etnografiya fani alohida o'rin egallaydi. Etnograf uchun boshqa fanlar vakillarida bo'lmagan imkoniyat, ya'ni xalqlarning maishiy turmushini, ular bilan yonma-yon turib o'rganish, etnosning ijtimoiy turmushidagi o'ziga hoslikni bevosita tadqiq qilish imkoniyati mavjud. Etnografiya fani ushbu tadqiqotlarni boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq holda olib boradi.

Etnografik tadqiqotlarning ahamiyati, ayniqsa yaqin o'tmishda urug'chilik jamiyati darajasida yashagan xalqlarni o'rganishda beqiyosdir. Bu borada L.G.Morganning "Qadimgi jamiyat" va "Xodenesaunlar yoki irokezlar ligasi" asarlarini eslash kifoya. F.Engelsning ko'pchilikka ma'lum "Oila, hususiy mulk va davlatning kelib chiqishi" asari huddi shu buyuk etnograf L.G.Morgan ishlari asosida yozilgan. Umuman olganda, sinfiy jamiyatdan oldingi davr ijtimoiy munosabatlari asosan etnografik ma'lumotlarga asoslangan. Etnograflar bu borada arxeologlar, antropologiya va boshqa yondosh fanlar yutuqlaridan to'la foydalanadilar.

Etnografik ekspeditsiyalar paytida kishilarning ishlab chiqarish jarayonida o'zaro munosabatlarini, oilaviy turmush, qishloq jamoasi, a'zolarining huquq, hamda majburiyatlarini tartibga soluvchi udumlar va x.k.lar tadqiqotchi oldida turgan asosiy muammolardir.

Sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi, keyinchalik paydo bo'lgan yozuv manbalar etnografik tadqiqotlar chegarasining birmuncha torayishiga olib keladi. Endilikda ular rasmiy qonun va qoidalar doirasidan tashqarida bo'lgan insonlarning o'zaro munosabatlarini o'rganadilar. Qadimdan xalqimizda mavjud bo'lgan o'tloqlardan, suvdan, o'rmonlardan birgalikda foydalanish udumlari, zarur paytda hasharning qo'llanishi, mehmondo'stlik, yaxshi-yomon kunlarda o'zaro hamkorlik kabilarning hammasi ijtimoiy munosabatlar xaqida malumotlar olish manbalari hisoblanadi.

Etnograflarning asosiy vazifasi xuddi shu, ilmiy tilda "Ijtimoiy hayot" deb ataladigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganishdir. Ijtimoiy turmushni tadqiq qilish mazkur

aholining etnik tarixini va madaniyatining o'ziga xosligini aniqlashga yordam beradi. Ular, shuningdek, insonning hozirgi murakkab vaziyatda jamiyatdagi o'rni, axloqi, odob qoidalarini belgilaydi. Ijtimoiy hayotni o'rganish davomida jonli, doimo o'zgaruvchan, doimo harakatdagi hayotni, unga yangi ijtimoiy munosabatlarning ta'siri, an'anaviy va yangi urf-odatlar, ularning transformatsiyasini kuzatamiz. Shuning uchun ijtimoiy munosabatlarni har tomonlama tadqiq qilish, xozirgi kungi hayotimizni etnografik tadqiq qilishning asosiy vazifalaridan biridir.

Ijtimoiy turmushni o'rganishning ikkinchi asosiy sharti, munosabatlarning ishlab chiqarish negizlarini tadqiq qilishdir. Ishlab chiqarish va uning turli sohalarini o'ziga xosligi, agar bor bo'lsa, mulkiy tengsizlikning taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish, unga alohida kishilar guruhining qatnashishi kabilar ijtimoiy turmushni o'rganishda e'tiborga olinishi zarur.

Masalan, O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan yaxshi an'ana mavjud. Bu - hashardir. Bu udum hatto maqolga aylanib ketgan, ya'ni "Xashar elga yarashar". Qadim zamonlardan katta ishar: uy qurish, yo'llar, ko'priklarni tuzatish, ariq zovurlar qazish, tuy-ma'raka qishloq aholisining birgalikdagi mehnati orqali amalga oshirilgan.

Hatto sotsializm davrida ham xalqning ushbu an'anasidan foydalanilgan, jumladan, Katta Farg'ona kanali, Farhod gidroelektrostansiyasi qurilishlarini eslash kifoya. Farg'ona kanalini xalqimiz 45 kunda (245 km) qazib, tarix sahifalaridan o'rin oldilar. Dala ekspeditsiyasi paytida etnografning vazifasi ushbu mehnat turining paydo bo'lishi, keng yoyilish sabablarini tadqiq qilishi lozim. Shu jumladan, hozirgi kunga kelib hasharning nima sababdan yo'qolib ketayotganligini aniqlang.

Ekspeditsiya paytida ijtimoiy turmushni tadqiq qilish, ma'lum tartibda turmushni, aholining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq urf-odatlari hamda udumlarini, jamoa mulkidan: o'rmon, o'tloq, suvdan foydalanish tartiblarini o'rganish juda foydali. Misol uchun, suv tanqis bo'lgan Nurota tumanidagi Qadoq qishlog'ida qadimdan mavjud bo'lgan qulfakli hovuz bor. Qishloq aholisi yozning issiq kunlarida shu hovuzda to'plangan suvni har kuni 2 ta xo'jalik tomorqasini sug'orishga ajratadi. Ekspeditsiya davomida hususiy mulkchilik shakllari va undan foydalanish, jumladan, yerdan olinadigan hosilning necha foizi soliq hisobiga to'langanligini aniqlash zarur. Jamoa mulki hisoblangan boylik va mollarning taqsimlanishi asosiy qonun-koidalarni aniqlang. Nurotaga bo'lgan ekspeditsiya paytida 1909 yilda tug'ilgan Toshpo'lat ota Xamroev bilan Buxoro amirligi paytidagi xo'jalik haqida suhbatlashdik. Ularning aytishiga qaraganda, mazkur joydagi "Ko'chat" va "Yomontuman" qishlog'i aholisi g'allachilik bilan shug'ullangan, 1980 yili 3 botmon bug'doy ekib, 70 botmon hosil olingan. Podshoni haqi - 12 botmon zakot olingan (1 botmon 128 kg). "Xosilni yig'ib xirmon qilganda maxalliy bek o'zining mirzasi bilan kelib, 4 pud bug'doy sig'adigan zag'omasi bilan o'lchab, soliqni yig'ib ketardi. Zakot pul deb esa har 100 tangadan 1 tanga, 40 ta qo'ydan 1 tasini olishardi. Bir yarim taxta suvimiz bor edi, 1,5 kun sug'orishga yetardi".

IJTIMOIIY HAYOTNI TASHKIL QILISH BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA QOIDALAR

Jamoa ishlarida mehnatni taqsimlash. Yo'l, ko'lrik qurish, ariq-zovurlarni tozalash va x.k.lar, misol uchun, Nurota atrofida sug'orish inshootlari - korizlarni tozalash. Kolxoz

tuzilgandan keyin ham korizlardan foydalanish davom etgan. Xar bir korizning o'z nomi bo'lgan: Ko'nchi, Quvondiq, Al-Buxori va boshqalar. Kuzda xashar aytishib, qo'y so'yilgan, savat va ketmon bilan korizlarning pushtasi* tozalangan. Xashardan keyin dasturxon yozilib, ishda qatnashganlarga taom tortilgan. Eng yaxshi ishlaganlarga, ustiga katta dumba yog'i qo'yib, "Polvon oshi" berishgan. Afsuski, o'lkamizdagi boshqa an'analar kabi, koriz tozalash ham 1957 yili yoppasiga davlat xo'jaliklari tuzilishi natijasida, korizlar tashlandiq xolga kelishi bilan asta-sekin yo'qolib ketdi.

Fikrimizni davom ettirib, siz: mahalla va kishloq jamoalari, unda saylangan kishilar, ularning haq-huquqlari va vazifalari, jamoatchilikning ta'sir etish shakllari, jamoatchilik fikri va x.k. muammolarni o'rganishga ham e'tibor qilishingizni ta'kidlamoqchimiz.

Ijtimoiy guruhlar: Bunday guruhlarining tabiati va tashkil topish qoidalari. Oila guruhlari, ularning alohida yashash va xo'jalik yuritish sharoitidagi aloqalari. Bolalar, o'smirlar, qizlarning hamkorlik guruhlari. Erkaklar va ayollar gaplari, ularning kelib chiqishi, hamkasblar guruhi, milliy tarkibi, aralash tumanlar, milliy guruhlar va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganish. Yuqorida sanab o'tilgan sohalar ham tadqiqotchi e'tiboridan chetda qolmasligi zarur.

Odamlar o'rtasidagi munosabatlar, qadriyatlar. Qo'shnichilik va qo'shnichilik munosabatlari. "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal" deydi xalqimiz. Yana bir maqolda "Uy olma, qo'shni ol" deyiladi. Qo'shnichilik munosabatlari qadimiy tarixga, an'analariga ega, ularning ko'pchiligi yo'qolib bormoqda, ularni yozib qoldirish etnograflarning vazifasidir. "Mehmon otangdek ulug'" degan maqolning o'zida mehmondo'stlik ana'nalarining qanchalik chuqur mazmuni yotadi. Har bir viloyat aholisining o'ziga xos mehmondo'stligi bor bo'lib, uni tadqiq qilish etnografiya fani uchun qiziqarli ma'lumotlar beradi. Bu borada qariyalar va bolalarga munosabat, ayollarga hurmat, e'tibor, ahloq va odob tushunchalari, bularning hammasi bizni tashvishlantiradigan muammolardir. Axir tariximizda nafaqat bizda, balki musulmonlar tarixida bo'lmagan qariyalar uyi, bolalar uyi kabi muassasalarning tashkil topganligini qanday tushunish mumkin? Nima sababdan xalqimiz uchun an'anaviy bo'lgan hurmat, ahloq, odob tushunchasi, qadriyatlari yo'qolib bormoq? Bunday voqealarning bo'lishiga kim aybdor? Biz o'z qadriyatlarimizni o'rganishimiz zarur, xalqimiz ananalarini o'rganishimiz uni keng ommaga, yosh avlodga yetkazishimiz kerak.

Jamoa yig'inlari va bayramlar. Turli xil yig'inlari, xalq o'yinlari va sayllari, Navro'z, Mehrjon va boshqa bayramlar, ularda qatnashgan qizlar, xarajatlar qanday taqsimlangan, jamoa uchun zarur bo'lgan paytda yig'in chaqirish, unga qatnashuvchilar tarkibi va boshqa muammolar ham etnograf tadqiq qilishi kerak bo'lgan tomonlardir.

Ko'rsatilgan sohalar ijtimoiy hayotning to'liq bo'lmagan turlari bo'lib, etnografik ekspeditsiya paytida tadqiqotchi sharoitga qarab ish ko'rishi, unga to'ldirishlar kiritishi mumkin.

Ijtimoiy turmushning biz ko'rsatgan sohalariga, xalq hayotining ushbu muammolariga qanchalik e'tibor talab qilinishi va uzoq muddatli tadqiqotni taqozo etishini ko'rdik. Ushbu sohani o'rganish albatta, statsionar uslubda olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Etnograf mahalliy aholi uchun "o'z kishisi"ga aylanib ketsa, unda yaxshi

* Пушта – коризнинг икки кудуғи орасини бирлаштирувчи ер ости арикчаси.

ma'lumot to'plash imkoniyati tug'iladi.

Tadqiqot borasida shaxsiy ishtirok va kuzatishning ahamiyati, kattadir. Hayotdagi mavjud o'ziga xosliklarni savol-javob orqali aniqlash mushkul, faqatgina tadqiqotchilarning xolis va diqqat bilan kuzatuv mazkur muammoning tagiga yetib, uni yozib olish imkoniyatini yaratadi. Ijtimoiy munosabatlarni, o'rganishda, ayniqsa mahalliy atamalarga alohida e'tibor berishingiz zarur.

Olingan ma'lumotlarning qanchalik keng tarqalganligini aniqlash uchun faqat mazkur tuman bilan chegaralanib qolmasdan, balki qo'shni tumanlarga kiruvchi bir necha qishloqlarda aholi bilan suhbatlashish orqali ham amalga oshiriladi.

Turli xil jamoa yig'inlarini o'rganishda texnik qo'llanmalardan kino, fotoapparat, magnitofon va x.k.lardan foydalanishi mumkin.

Ijtimoiy turmushni o'rganish borasida uning qatlamlariga, ayniqsa xalq og'zaki ijodiga, folklorga, afsona, rivoyatlari va maqollari (xalq ma'naviy madaniyatining aniq ko'rsatkichlari)ga e'tibor qaratilishi shart.

Zamonaviy ijtimoiy Hayotni, ijtimoiy turmushni o'rganishda tadqiqotchi shaxsiy kuzatishlar, savol-javoblardan tashqari, turli jamoa tashkilotlarining majlislar xujjatlaridan, devoriy gazetalar va x.k. lardan foydalanishi mumkin.

Yalpi tadqiqotlar, savol-javob varaqalarini tuldirish orqali olingan ma'lumotlarni elektron hisoblash mashinalarida qayta ishlab, mujassamlashtirish ham qiziqarli natijalar berishi muqarrar. Zamonaviy etnik jarayonlarni o'rganishda xujjatlardan, statistik ma'lumotlardan, etnosotsiologik tadqiqotlardan foydalanish mumkin. Ommaviy anketalar to'ldirish yo'li bilan biz kishilarning ijtimoiy faolligini rolini va o'rnini ainqalaymiz.

Oila va oilaviy munosabatlar

Ijtimoiy munosabatlarning yana bir sohasi oilaviy munosabatlardir. Shu sababdan, oilani o'rganishga etnografiyada muhim o'rin beriladi.

Oila - bu jamoa birligidir. Uning ichki aloqalari nikoh va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan belgilanadi. Oilaning shakli va tabiati jamiyatning sotsial-iqtisodiy taraqqiyoti darajasi bilan bog'liqdir. Xususan, oila bu faqat qon-qarindoshlik guruhigina emas, balki mustaqil xo'jalik birligi, jamiyatning boshlang'ich hujayrasidir.

Oilaning xo'jalik va maishiy jihatdan alohida o'rin tutishi undagi munosabatlarning konservativligiga, oldingi tuzumlarga hos belgilarni saqlab qolishga sharoit yaratish natijasida oilaviy munosabatlarni o'rganish etnograflarda qimmatli tarixiy-qiyosiy malumotlarni to'plash imkoniyatini beradi.

O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda qadimiy, patriarxal turdagi yirik oilalar saqlanib qolgan. Kafedramiz tomonidan 1978-79 yillarda o'tkazilgan etnosotsiologik tadqiqotlar davomida O'zbekistonning turli viloyatlarida o'rganilgan 6000 oilaning 15,2 foizi 2-3 avlod vakillari yashaydigan yirik oilalar ekanligi tasdiqlandi.⁵

Etnograflar bu xildagi oilalarni o'rganish borasida mehnat taqsimotiga, avlodlar

⁵ Исследования по теме "Настоящее и будущее электричества в Вашем быту" проведенные совместно с отраслевой лабораторией бытовой энергетики Ленинградского политехнического института им. М.И.Калинина. Данные обработаны на ВЦ. Таллинского радио.

Таблица №1

orasidagi munosabatlar, moliyaviy muammolarning ham qilinish masalasiga va boshqalarga e'tibor qilinishi kerak.

Zamonaviy oilalarni o'rganish ham amaliy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, nazardan chetga qolmaydi. Jumladan, yuqorida eslatilgan tadqiqotlar paytida 65,4 foiz yoki 2.648 ta oila individual kichik oilalar ekanligini aniqlandi.

Bu sohalaridagi zamonaviy etnik jarayonlarni innovatsiya, ya'ni yangiliklarni tadqiq qilish, targ'ibot ishlarini olib borishda etnograflarning roli ayniqsa kattadir.

Oilaviy munosabatlarni o'rganishda iqtisodiy omillarga, umuman sotsial-iqtisodiy, madaniy sohalarining oilaviy munosabatlarga ta'sirini o'rganishimiz ham zarur. Oilaviy munosabatlar turli xil shakillarni o'zida mujassamlashtiradi. Xozirgi paytda yer yuzidagi ko'pchilik mamlakatlarga keng tarqalgan oila individual kichik oila (ota-ona, farzandlari) yoki monogam oiladir. Yuqorida qayd etilganidek, O'rta Osiyo sharoitida, ayniqsa qishloqlarda patriarxal tipidagi bir necha avlod vakillaridan iborat ajralmagan oilalar ham mavjud.

Oilaviy munosabatlarni o'rganish ko'p vaqtini va sabr-toqat bilan tadqiqot olib borishni talab qiladi, yo'qsa mutaxassis yuzaki xulosalarga kelishi mumkin. Shuning uchun oilani o'rganish statsionar uslubdagi ekspeditsiya orqali amalga oshirilsa, yaxshi natija beradi.

Oilani o'rganishning etnograf qo'llaydigan asosiy uslubi: shaxsiy kuzatuv va axborotchilar bilan savol-javobdir. Bu borada tadqiqotchi doimo xolis bo'lishi kerak, agar u borliqni bo'yab yoki o'zicha bir taraflama yoritisa, olingan malumotlarning qiymati yo'qoladi. Xolis ma'lumotlar olish uchun, shuningdek, yoppasiga anketalar to'ldirish natijasida olingan ma'lumlardan ham foydalanish zarur. Bu borada qishloq kengashlarining xo'jalik daftarlaridan ham qiziqarli ma'lumotlar olish mumkin.

Oilaviy munosabatlarni o'rganishni, uning tarkibi va sonini aniqlashdan boshlagan ma'qul. Bu hildagi ma'lumotlarni aholi ro'yxati, xo'jalik daftari yoki o'tkazilgan etnosotsiologik tadqiqotlar beradi.

Masalan:

1-jadval

O'zbekiston Respublikasidagi oilalar soni

(100 foiz hisobida) 6000 oila

Respublika bo'yicha	Qishloq tumanlarida
1 kishi – 2,9	1 kishi -2,4
2 kishi – 9,0	2 kishi – 10,0
3 kishi – 14,3	3 kishi – 15,0
4 kishi – 19,7	4 kishi – 17,9
5 va undan ortiq - 53,7	5 va undan ortiq – 54,8

Oilaviy munosabatlarning iqtisodiy asosini-oila budjeti (hisob- kitobidan) aniqlaymiz. Bunday ma'lumotlarni ham anketalar orqali yoki savol-javob yo'li bilan aniqlashimiz mumkin.

Oila turmushining iqtisodiy asoslaridan biri bu vorislik va mol-mulkka nisbatan haq-huquqdir. Ko'pincha xolisona, to'la ishonchli ma'lumot olish qiyin bo'lgan soha - bu

oiladagi o'zaro munosabatlardir. Oila azolari bu haqda gapirishni ko'pincha istamaydi, qo'shnilarning bergan ma'lumotlari holis bo'lish qiyin. Shu sababdan, biz oiladagi mehnat taqsimoti, oila azolarining haq-huquqlari va majburiyatlari orqali malumot olishimiz mumkin. Bu sohada oilaviy bayramlar, yig'ilish yoki to'y, marosimlarni kuzatish orqali ham qiyosiy ma'lumotga erishamiz.

Taniqli rus etnografi S.A.Tokarev qarindoshlik munosabatlarini oddiy sonlar orqali (raqam bilan) ifodalashni taklif etgan. Buning uchun ko'plab qon-qarindoshlik munosabatlaridan 8 ta asosiy kategoriya olinadi: ota, ona, o'g'il, qiz, er, xotin, aka, singil. Bu kategoriyalarning har biri: erkak jinslari toq, ayollar juft raqam bilan belgilanadi.

Ota – 1	Er – 5
Ona – 2	Xotin – 6
O'g'il – 3	Aka – 7
Qiz – 4	Singil – 8

Bunday raqamlar sistemasidan foydalanib, har qanday qarindoshlik munosabatlarini ifodalash osonlashadi.⁶ Misol uchun, (otasining otasi) 1-1, qaynotasi (xotining otasi) 1-6, bobosi (onasining otasi) 1-2, qaynotasi (erining otasi) 2-5 va x.k. Mazkur sistema juda murakkab oilaviy munosabatlarni aniq yozib olishga imkon beradi. Misol uchun oilada er, xotin, xotining oldingi eridan bo'lgan qizi va er-xotinning o'g'li yashasa, uni quyidagicha ifodalash mumkin: 5-6-6-4-5 6-3.

Oilaviy munosabatlar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni moddiy va ma'naviy madaniyatning turli sohalaridan olish mumkin. Jumladan, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi bu sohada alohida o'rin tutadi. Qishloq yoki mahallada qarindosh xo'jaliklarining joylashishiga qarab ham oilaviy munosabatlar haqida fikr yuritish mumkin.

Ba'zida oilaviy munosabatlar tug'risida ma'lumotlarni uy-joylarning tuzilishidan, rejasidan ham bilish mumkin. Uyning "ichkari" va "tashqari"ga bo'linishi, mehmonxona va qo'noqxonaning borligi va x.k.lar asosida oilaviy munosabatlarni ravshanroq tasavvur qilishda kiyimlardan (qizlar, juvonlar, qariyalar uchun); sochni o'rishdan, mehnat taqsimotidagi farqlardan bilib olishimiz mumkin.

Diniy tasavvurlar, urf-odat va udumlar, raqs va ommaviy ashula, o'yinlar.

Xalq madaniyatining ushbu sohaları faqat ma'naviy madaniyatiga oid bo'lganligi uchun emas, balki ularni o'rganishda umumiy usullar qo'llanishi bilan ham bir-biriga yaqindir. Ma'naviy madaniyatning mazkur sohaları ko'pgina umumiylikka ega bo'lishi bilan birlikda, o'zaro uzviy bog'liq va shu sababdan, ko'pincha ularni bir-biridan ajratish ham mushkul. Jumladan, ko'p urf-odatlar, marosimlar, qo'shiq va raqssiz bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida esa, o'z navbatida diniy tasavvurlarni, udumlarni uchratishimiz mumkin.

Mamlakatimizda yetmish yil davomida rasmiy dinlarga, jumladan, islom diniga qarshi kurashib kelindi. Shunga qaramasdan, dinga ishonuvchilar mavjud va hozirgi kunga kelib Konstitutsiyadagi vijdon erkinligi haqidagi qonun amalda qo'llanilmoqda. Rasmiy dinni o'rganish etnograflar vazifasi emas, ular ko'pincha O'rta Osiyoda islomgacha tarqalgan diniy tasavvurlarning xalq madaniyatida, urf-odatlarida, oilaviy-maishiy munosabatlarida uchraydigan qoldiqlarni o'rganishdan iborat. Etnografik ekspeditsiya a'zolarining asosiy vazifalari ijtimoiy hayotda oilaviy-maishiy turmushdagi

⁶ Данные этносоциологических исследований «Настоящие и будущее электричества в Вашем быту», Обработаны на ВЦ. Талл.радио.

diniy tasavvurlarning saqlanib kolishi va uning sabablari, tabiati va-mohiyatini o'rganishga qaratilishi lozim.

Dala ekspeditsiyasi paytida dinga qarshi ochiqdan-ochiq tashviqot qilish ma'n etiladi. Ko'pincha dindor kishilar sizning bunday harakatingizni sezsa, sidqidildan axborot bermasliklari yoki gapirishdan butunlay bosh tortishlari mumkin. Bizning asosiy maqsadimiz, hamma harakatimiz ekspeditsiya oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Diniy tasavvurlarni tadqiq qilish murakkab vazifa, shuning uchun biz juda ehtiyotlik bilan, kishilar diliga ozor yetkazmasdan olib borishimiz kerak. O'zbekistonning turli tumanlarida biz turli-tuman diniy tasavvurlarning (folbin, kinnachi, parixon va x.k.lar) amaliyotini kuzatishimiz, tadqiq qilishimiz mumkin. Etnograf ekspeditsiyaga tayyorgarlik davomida ushbu muammoga oid E.B.Taylor, Dj.Frezer, T.P. Snesev, I.M.Jabborov, V.N.Basilov kabi olimlarning asarlarini o'rganib, malum ilmiy tasavvurga ega bo'lishlari kerak.⁷

Etnografik ekspeditsiya paytida Forish tumanining bir qancha qishloqlarida mahalliy aholiga oid irimlarni o'rgandik. Jumladan, axbo-rotchilarning aytishicha, dalada omoch bilan yer haydab boshlashdan oldin tayoqqa ayollar kiyimini kiygazib, uyma-uy yurilar (2-3 kishi) va xayr-ehson yig'ilar, keyin tushgan narsalardan ovqat tayyorlanish, yig'ilganlar iste'mol qilinarkan. Suv xotinni ko'tarib olganlar:

“Suv xotin, sulton xotin”

Suv tilaydi, bu xotin

Ko'lankasi maydon xotin

Jalani yog'dirib, o'rani to'ldirgan xotin!"-

deb qo'shiq aytilgan va yomg'irni chaqirishgan.

Biz, shuningdek, shamolni chaqirib yoki uni to'xtatish uchun qilinadigan irimlar haqida ham birmuncha ma'lumotlar to'pladik. Etnograf dala sharoitida oilaviy, mavsumiy urf-odatga marosimlarda amal qilinadigan diniy rasm-rusumlarga va irimlarga ham etibor qilishi zarur.

